



Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va  
adabiyoti universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarni  
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish  
tarmoq markazi

# TIL TA'LIMIGA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUV

*moduli bo'yicha*

## O'QUV-USLUBIY MAJMUA

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



TOSHKENT-2021

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA-MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**

**TIL TA'LIMIGA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUV  
moduli bo'yicha**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Malaka oshirish kursi yo'nalishi:**

**O'zbek tili va adabiyoti**

**Toshkent-2021**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:**

**I. Azimova** – filologiya fanlari nomzodi

**Taqrizchilar:**

**H. Dadaboyev** – filologiya fanlari doktori

**B. Abdushukurov** – filologiya fanlari doktori

**S. Normamatov** – filologiya fanlari doktori. ToshDO‘TAU

**E. Ushenmez** – filologiya fanlari doktori, professor

Turkiya Istanbul universiteti

**Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi**

**Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining**

**qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

**(2020-yil 29-dekabrdagi 7-sonli qarori)**

## MUNDARIJA

T/r	Bo'limlar	Sahifa
I.	<b>ISHCHI O'QUV DASTUR</b>	<b>3</b>
II.	<b>MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI</b>	<b>12</b>
III.	<b>NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI</b>	<b>25</b>
IV.	<b>AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI</b>	<b>57</b>
V.	<b>KEYSLAR BANKI</b>	<b>88</b>
VI.	<b>GLOSSARIY</b>	<b>90</b>
VII.	<b>ADABIYOTLAR RO'YXATI</b>	<b>102</b>
VIII.	<b>TAQRIZ</b>	<b>105</b>

## I. ISHCHI O'QUV DASTUR



## KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli, 2020-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 40-sonli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiyligi malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamlı texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamонавиъ uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning

kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda, dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

“Til ta'limiga psixolingvistik yondashuv” deb nomlangan mazkur fan doirasida til ta'limiga psixolingvistik yondashuvning boshqa yondashuvlardan farqi, til ta'limi jarayonini psixolingvistik baholash zaruriyati, til ta'limiga psixolingvistik yondashuvning nazariy va amaliy ahamiyati, til ta'limiga psixolingvistik yondashuvni o'rganish istiqbollari, muloqot jarayonini modellashtirish, nutqni yaratish va qabul qilish jarayonini modellashtirish, nutqdagi xatolarga asoslangan yondashuv, xronometrik yondashuv, Dell modeli, Levert modeli, Ellis va Yang modeli, til o'zlashtirish va o'rganishning farqi, grammatik strukturani o'zlashtirishda tabiiy tartibning mavjudligi, Monitor gipotezasi, “Input” gipotezasi “Input” gipotezasiga amaliy misollar, “Affektiv filtr” gipotezasi haqida ma'lumot beriladi. Bu fan pedagoglarni psixolingvistikaning til o'zlashtirilishi yo'nalishidagi eng so'nggi yutuqlar bilan, o'zbek tili misolida o'tkazilgan psixolingvistik tajribalar bilan tanishtiradi, lisoniy hodisani psixolingvistik jihatdan baholashni o'rgatadi.

### Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi tinglovchilarga ona tilining o'zlashtirilishiga oid psixolingvistik qonuniyatlar, so'z ma'nosining o'zlashtirilishi, so'z shakllaring xotirada saqlanishi, grammatik strukturaning o'zlashtirilishi, nutq yaratilishi

mexanizmi, nutqning hosil bo‘lishi va qabul qilinishi darajalari va birliklari, nutqning hosil bo‘lishi bo‘yicha psixolingvistik modellar, nutqning qabul qilinishi bo‘yicha psixolingvistik modellar, matnning tushunilishidagi o‘ziga xosliklar, ona tili darslarida to‘rt lisoniy malakani – eshitib tushunish, o‘qib tushunish, og‘zaki nutq va yozma nutqni – shakllantirish masalalari bo‘yicha bilim berish.

Modulning vazifasi tinglovchilarni ona tili ta’limi davomida o‘quvchilarning lisoniy malakasidagi zaif nuqtalarning psixolingvistik asosini to‘g‘ri baholash, uni rivojlantirish uchun mos yondashuvni tanlay olish bo‘yicha ilmiy-nazariy bilim bilan quollantirish.

O‘quv fanida quyidagi vazifalarini amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

- o‘zbek tilini o‘qitishning psixolingvistik asoslarini tushuntirish;
- ona tilining o‘zlashtirilishidagi psixolingvistik qonuniyatlar bilan tanishtirish;
- til ta’limi jarayonidagi til hodisalarini psixolingvistik tahlil qilish va baholay olishni o‘rgatish;
- nutqning yaratilishi va qabul qilinishiga oid psixolingvistik modellar va ularning til ta’limi jarayonidagi ahamiyati bilan tanishtirish;
- to‘rt lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosini tushuntirish.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va layoqatlariga qo‘yiladigan talablar**

“O‘zbek tilini o‘qitishning psixolingvistik asoslari” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida **tinglovchi**:

- o‘zbek tilidagi matnlarning yaratilishidagi lingvistik omillarini, til ta’limi jarayonida psixolingvistik bilimning ahamiyati, o‘zbek tilidagi matnlarning yaratilishi va qabul qilinishidagi lingvistik va ekstralengvistik omillarning ahamiyati bo‘yicha **bilimga**;

- turli janrlardagi badiiy asarlarni filologik tahlil qila olish, til ta'limi jarayonida uchraydigan lisoniy hodisalar asosida yotgan psixolingvistik qonuniyatlarni aniqlay olish ***ko'nikmalarga***;
- til ta'limi jarayonini psixolingvistik tadqiqot obyekti sifatida tahlil qilish, til ta'limi jarayonini psixolingvistik taddiqot obyekti sifatida tahlil qilish ***malakasiga*** ega bo'lishi kerak.

### Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“O'zbek tilini o'qitishning psixolingvistik asoslari” kursi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan; o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlardan, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### Modulning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“O'zbek tilini o'qitishning psixolingvistik asoslari” “Til tizimini antropotsentrik tadqiq etish tamoyillari” moduli o'quv rejasidagi filologik ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar, filologik tadqiqotlarda tizimli tahlil, tilshunoslik nazariyasi va metodikasi, o'zbek nazariy tilshunosligi bilan bog'liqlikda va uzviylikda o'qitiladi.

### Modulning andragogik ta'limdagi o'rni

“Til ta'limiga psixolingvistik yondashuv” modulini o'zlashtirish orqali tinglovchilar psixolingvistikaning yetakchi ilmiy yo'nalishlaridan biri – til o'zlashtirish yo'nalishi bo'yicha tadqiqotlarning xulosalari bilan tanishadilar, ona tilini o'zlashtirishdagi universal qonuniyatlarni bilib oladilar, til tadqiqida

qo'llanayotgan zamonaviy metodlardan xabardor bo'ladilar, lisoniy hodisalarini psixolingvistik tahlil qilishga doir kasbiy layoqatga ega bo'ladilar.

### Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>O'quv yuklamasi</b> (soat)		<b>Auditoriya o'quv yuklamasi</b>	<b>Jumladan:</b>
		<b>Jami</b>	<b>Nazariy</b>		
1.	Til ta'limiga psixolingvistik yondashuvning boshqa yondashuvlardan farqi.	<b>2</b>	2		
2.	Til ta'limi jarayonini psixolingvistik baholash zaruriyati.	<b>2</b>	2		
3.	Til ta'limiga psixolingvistik yondashuvning nazariy va amaliy ahamiyati.	<b>2</b>	2		
4.	Muloqot jarayonini modellashtirish.	<b>2</b>			2
5.	Nutqdagi xatolarga asoslangan yondashuv.	<b>2</b>			2
6.	Til o'zlashtirish va o'rganishning farqi.	<b>2</b>			2
7.	Ikkinci tilni o'zlashtirish jarayoniga formal yondashuvlar.	<b>2</b>			2
	<b>Jami</b>	<b>14</b>	<b>6</b>		<b>8</b>

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu.** Til ta'limiga psixolingvistik yondashuvning boshqa yondashuvlardan farqi. Psixolingvistika inson ongida kechadigan tilga oid jarayonlarni o'rganadi, xususan, nutqning yaratilishi, nutqning qabul qilinishi va tilning o'zlashtirilishi psixolingvistikaning asosiy masalalaridir. Tilning o'zlashtirilishi yo'nalihi mohiyat e'tibori bilan alohida fan sifatida shakllangan. G'arbdha birinchi tilning o'zlashtirilishi, ikkinchi tilning o'zlashtirilishi nomlari bilan yuritiladigan bir-biriga yaqin ikki yo'nalihsda tadqiqotlar amalga oshiriladi.

**2-mavzu.** Til ta'limi jarayonini psixolingvistik baholash zaruriyati. Har qanday til ta'limi lisoniy birliklarning kodlanishi va dekodlanishi ko'nikmalariga qaratilar ekan, mazkur jarayonni to'g'ri anglash va o'quvchilarning ko'rsatkichlarini mos ravishda baholash, shu orqali dars samaradorligini ta'minlash uchun psixolingvistik bilim zarur bo'ladi. Mazkur kursning maqsadi tinglovchilarni til o'qitish darslarida kuzatiladigan holatlarni psixolingvistik nuqtai nazardan baholay olishga o'rgatish.

**3-mavzu.** Til ta'limiga psixolingvistik yondashuvning nazariy va amaliy ahamiyati. Til ta'limiga psixolingvistik yondashuvni o'rganish istiqbollari. Psixolingvistika fan sifatida shakllangandan buyon nutq yaratilishi bo'yicha ham, qabul qilinishi bo'yicha bir qator modellar ishlab chiqilgan. Ularda mazkur jarayonlarning qanday bosqichlardan iboratligi va u bosqichlarda qanday birliklar bilan ish ko'rlishiga e'tibor qaratilgan. Bolaga qaratilgan nutq. Bola tomonidan nutqning qabul qilinishi. Nutq segmentatsiyasiga oid psixolingvistik qonuniyatlar. So'z ma'nosining o'zlashtirilishiga oid psixolingvistik qonuniyatlar. Gap strukturasining o'zlashtirilishi. So'roq gaplarning o'zlashtirilishi. Ona tili ta'limida grammatizm. Ona tili ta'limida kommunikativ yondashuvni qo'llash.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

**1-mashg'ulot. Muloqot jarayonini modellashtirish.** Nutqni yaratish va qabul qilish jarayonini modellashtirish. Nutq yaratilishi va qabul qilinishi psixolingvitsikaning markaziy masalalaridan biridir. Dastlabki modellar axborot almashish nazariyasiga tayangan holda tilni kod sifatida talqin qilgan, nutq yaratilishi kodlash, qabul qilinishi esa dekodlash jarayoni deb nomlangan. Keyingi modellar kodlash va dekodlash jarayonining tafsilotlarini ochishga harakat qilgan. Nutqiy patalogiyani o'rganish ham mazkur modellarning takomillashishiga muhim hissa qo'shgan. Psixolingvistikada Dell modeli, Levelet modeli, Ellis va Yang modeli kabi modellar mavjud.

**2-mashg'ulot. Nutqdagi xatolarga asoslangan yondashuv.** Xronometrik yondashuv. Dell modeli. Levelet modeli. Ellis va Yang modeli. Matnning shakl va mazmuniga aloqador omillarni lingvistik omillar deb aytish mumkin. Bularga matnda qo'llangan so'zlar, gap strukturalari, matn strukturasi kabilar kiradi. Tadqiqotlarda chastotasi past yoki notanish so'zning matnning tushunilishidagi salbiy ta'siri, shuningdek, ma'lum tilga xos standart konstruksiyalarning tushunishga ijobiy ta'siri kuzatilgan.

**3-mashg'ulot. Til o'zlashtirish va o'rganishning farqi.** Grammatik struktuarni o'zlashtirishda tabiiy tartibning mavjudligi. Monitor gipotezasi. Monitorni qo'llashda individual farqlilik. "Input" gipotezasi. "Input" gipotezasiga amaliy misollar. "Affektiv filtr" gipotezasi.

Ona tilini o'zlashtirish jarayonining o'rganilishi. Bolaga qaratilgan nutq. Bola tomonidan nutqning qabul qilinishi. Nutq segmentatsiyasiga oid psixolingvistik qonuniyatlar. So'z ma'nosining o'zlashtirilishiga oid psixolingvistik qonuniyatlar. Gap strukturasining o'zlashtirilishi. So'roq gaplarning o'zlashtirilishi. Ona tili ta'limida grammatzm. Ona tili ta'limida kommunikativ yondashuvni qo'llash.

**4-mashg‘ulot. Ikkinchи tilni o‘zlashtirish jarayoniga formal yondashuvlar.** So‘z ma’nosining o‘zlashtirilishi yuzasidan psixolingvistik tadqiqotlar va formal yondashuvlar bilan tanishtiriladi. So‘z ma’nosining o‘zlashtirilishida so‘z chastotasining va kontekstning ahamiyati tushuntiriladi. Matnni qabul qilishda notanish so‘zning matnni tushunishga qanday ta’sir qilishi tahlil qilinadi. So‘z ma’nosining o‘zlashtirilishda standart konstruksiyalarning o‘rni haqida fikr yuritiladi. Notanish so‘zning ma’nosini tushunishda assotsiativ reaksiyaning ahamiyati ko‘rib chiqiladi Matnning tushunilishi murakkab jarayon bo‘lib, parallel kechadigan bir necha darajalardan iborat bo‘ladi. Matnni tushunish har qanday ta’limning asosini tashkil qiladi. Shuning uchun mazkur jarayoni psixolingvistik tahlil qilish mazkur jarayon haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishimizga va shu asosda mazmunni yetkazishda samarador usullarni topishga yordam beradi.

### O‘QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalilaniladi:

- masofadan o‘qitish;
- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ta’lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyatga qo‘llash);
- suhabatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, undaadabiy ta’limga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;
- tinglovchilarни bahs-munozaralar paytida muammolar yechimi bo‘yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o‘z fikrini asoslashga o‘rgatish.

## **II.METODNI AMALGA OSHIRISHDA QO'LLANILGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI**



## “SWOT-tahlil” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S (strength)</b>	- kuchli tomonlari
<b>W (weakness)</b>	- zaif, kuchsiz tomonlari
<b>O (opportunity)</b>	- imkoniyatlari
<b>T (threat)</b>	- to'siqlar

**Namuna:** Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

<b>S</b>	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlilning kuchli tomonlari.	Maksimal aniqlik bilan har tomonlama xolis xulosa chiqarishi.
<b>W</b>	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlilning kuchsiz tomonlari.	Badiiy matndagi tuyg'ular tahlilini to'la amalga oshirib bo'lmaydi.
<b>O</b>	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlil (ichki) imkoniyatlari.	Shakl va mundarijaning har bir komponentlarini jiddiy mikrotahlildan o'tkaziladi.
<b>T</b>	To'siqlar (tashqi).	Struktural poetika bo'yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi.

## “Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish mumkun.

### ***Metodni amalga oshirish tartibi:***



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhgaga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallari tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlarni o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

**Namuna:**

<b>Badiiy tahlil tizimlari</b>					
<b>Germenevtik tahlil (talqin)</b>		<b>Struktural (tarkibiy) tahlil</b>		<b>Lisoniy tahlil</b>	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchili gi
<b>Xulosa:</b>					

**“Keys-stadi” metodi**

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

**“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari**

<b>Ish bosqichlari</b>	<b>Faoliyat shakli va mazmuni</b>
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minati bilan tanishtirish.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audiovizual harakat;</li> <li>✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda);</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash.</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash.</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'inining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash.</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish.</li> </ul>

**Keys. Kichikroq badiiy (she'riy) matnni tahlil qilish uchun** ko'rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobjiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

### ***Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:***

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

## “FSMU” metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiylar fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

<b>F</b>	- <b>fikringizni bayon eting</b>
<b>S</b>	- <b>fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating</b>
<b>M</b>	- <b>ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring</b>
<b>U</b>	- <b>fikringizni umumlashtiring</b>

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Namuna:** **Fikr-**“Struktural tahlil asosida mavjud matnni mantiqan qismlarga ajratish va uni yig‘ish yotadi”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

## “Assesment” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o’zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o’zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘srimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna:** Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



“Struktura” deganda nimani tushunasiz?

- A. Yunoncha so‘z bo‘lib, tarkib ma’nosini anglatadi.
- B. Inglizcha so‘z bo‘lib, tahlil ma’nosini anglatadi.
- C. Yunoncha so‘z bo‘lib, talqin degan ma’noni anglatadi.
- D. Lotincha so‘z bo‘lib, badiiy asar matnini anglatadi.



“Struktural tahlil” qanday tahlil turi?

- A. “Struktural tahlil” badiiy tahlil turi.
- B. “Struktural tahlil” ilmiy tahlil turi.
- C. “Struktural tahlil” tanqidiy tahlil turi.
- D. “Struktural tahlil” badiiy asarni tarkilash orqali tahlil qilishdir.



“Struktural metod”ning lug‘aviy ma’nosini bilasizmi?

- A. “Struktura – tarkib”, “metod - fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- B. “Struktura - tarkib”, “metod – ijod turi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi”
- C. “Struktura – tahlil”, “metod - fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- D. “Struktura - talqin”, “metod – ilmiy izlanish” kabi lug‘aviy ma’no beradi.



Badiiy matn ilmiy matndan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

- A. Badiiy matn obraz yaratish orqali shakllantiriladi, ilmiy matnda tushuncha va atamalar asosida fikr yuritiladi.
- B. Badiiy matn roman va hikoyalar matni, ilmiy matn esa dissertatsiyadir.
- C. Badiiy matn ijodiy tasavvur orqali yaratiladi, ilmiy matn ilmiy tafakkur asosiga quriladi.
- D. Badiiy matn vazn va qofiyaga asoslanadi.

## “Tushunchalar tahlili” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘gri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagи tayanch tushunchalar tahlili”:

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo’shimcha ma’lumot
Badiiy matn	Nobadiiy matndan hissiy-impressiv va nutqning bo‘yoqdorligi va obrazli tafakkur bilan farq qiladi.	
Struktura	Tarkib. Badiiy matn tarkibi (qurilishi), uning qismlarga ajratib tahlil qilish.	
Badiiy timsol (obraz)	Aniq va shu bilan birga umumlashtirish xarakteriga ega bo‘lgan badiiy manzara yoki siymo yaratish.	
Adabiy tur	Matnni ifoda xususiyatiga ko‘ra farqlash.	

Adabiy janr	O‘z ifoda shakliga, vazn birliklariga va qofiyalanish tizimiga ega bo‘lgan mustaqil shakliy ifodalanish.	
Ritm, Ritmika	Bir maromda takrorlanib turuvchi nutqiy harakat va uni o‘rganuvchi soha.	
Uslugub	Muallif ijodining yoki badiiy matnning bektakror o‘ziga xosligi.	

**Izoh:** Ikkinchisi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘sishma ma’lumot glossariyda keltirilgan.

### “Venn diagrammasi” metodi


**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

**Namuna:**

**Ifoda shakllari bo'yicha (she'riy va nasriy nutq).**



### “Blits-o‘yin” metodi

**Metodning maqsadi:** tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.


#### **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ularidan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o’tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa “0”, mos kelsa “1” ball qo‘yish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

**Struktural tahlil ketma–ketligini aniqlash. O‘zingizni tekshirib ko‘ring!**


Harakatlar mazmuni	Yakka bahos	Yakka xatosi	To‘g‘ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Matnning tashqi strukturasi.					
Matnning ichki qurilishi.					
Matnni o‘z yozuvida o‘qish tajribasi.					
Matnni o‘z tilida o‘qib tushunish (lug‘at va izoh).					
Matn qismlarining dastlabki talqini.					
Qismlarga ajratilib tahlil qilingan matnning mantiqiy butunligi.					



Grafik organayzer talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yich yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo‘llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- 1 • Talabalar ikki guruhga bo‘linadi
- 2 • Yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi
- 3 • Har bir guruhga o‘zlashtirilayotgan mavzu (bo‘lim, bob) yuzasidan alohida topshiriq beriladi
- 4 • Topshiriqlar bajarilgach, guruh a’zolari orasidan liderlar tanlanadi
- 5 • Liderlar guruh a’zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to‘ldiradi



### **III.NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI**



**1-MAVZU:**

# TIL TA'LIMIGA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVNING

## BOSHQA YONDASHUVLARDAN FARQI

**REJA:**

- 1. Til – ta'limning asosi**
- 2. So‘zning inson ongi tomonidan qayta ishlanishining psixolinguistik model**
- 3. Til – ta'limning asosi**
- 4. Eshitib va o‘qib tushunish**
- 5. Og‘zaki va yozma nutq**


**Tayanch tushunchalar:** Ellis va Yang modeli , audio-kirish leksikoni, vizual-kirish leksikoni, og‘zaki-chiqish leksikoni, grafemik-chiqish leksikoni, semantik tizim, neyrolinguistika, afaziya, psixolinguistika .

**Til talimming asosi.** Ta’lim jarayoni asosan til vositasida kechar ekan, ona tili ta’limi ta’lim tizimidagi fanlar orasida alohida o‘rin tutadi. Boshqa fanlarning o‘zlashtirilishi o‘quvchining o‘z ona tilida yozma matnni, og‘zaki matnni tushunish, o‘z fikrini yozma va og‘zaki shaklda izchil bayon eta olish ko‘nikmasi bilan bevosita bog‘liq. Aytish mumkinki, ona tili ta’limi har qanday bosqichdagi ta’limning negizini tashkil etadi. Tilning eng birinchi vazifasi ma’lumotni kodlash va dekodlashdir, ya’ni so‘zlovchi o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalashi kerak va qabul qilingan nutqda berilgan ma’lumotni to‘g‘ri tushunishi kerak. O‘rtalarda ona tili ta’limi tilning aynan shu – birlamchi funksiyasini qo’llash malakasini shakllantirishga qaratilishi kerak.Psixolinguistik tadqiqotlardan ma’lumki, insonning til qobiliyati to‘rt xil kognitiv malakaning o‘zaro bog‘liqligida rivojlanadi: eshitib tushunish, fikrini og‘zaki bayon qilish, o‘qib tushunish, fikrini yozma bayon qilish. Eshitib tushunish va gapirish og‘zaki nutq shakli bilan

bog‘liq, o‘qib tushunish va yozish esa tilning yozma shakli bilan. Eshitib tushunish va o‘qib tushunish psixologik tomondan nutqni qabul qilish jarayoni, gapishtirish va yozish esa nutq yaratish jarayonidir. Mazkur malakalarning har biri insonning turli a’zolari yordamida yuzaga chiqar ekan, ularning har biri o‘zaro bog‘liqligi bilan birga, bir-biridan farqli ekanligiga e’tibor qaratish zarur. Xususan, nutqni eshitib tushunish inson bosh miyasining chakka qismida joylashgan neyronlar ta’sirlanishi asosida amalga oshadi; o‘qib tushunish bosh miyaning ensa qismidagi neyronlar yordamida; gapishtirish bosh miyaning peshona bo‘limidagi nutq a’zolarini harakatlantiruvchi neyronlar yordamida; yozish esa bosh miyaning peshona bo‘limidagi qo‘lni harakatlantiruvchi neyronlar yordamida amalga oshiriladi. Bir qarashda mazkur farqlar muhim emasday tuyuladi, chunki asosda semantik tizim bitta bo‘ladi, semantik tizim qolgan hammasini boshqaradiganday tasavvur qilamiz, chunki sog‘lom odamda mazkur to‘rt malakaning jiddiy farqi sezilmaydi. Ko‘p kitob o‘qigan odam yaxshi gapishtiradi, yaxshi yozadi deb qaraladi, bunday bo‘lmasa u istisno sifatida e’tiborga olinmaydi. Mazkur yondashuvga neyrolinguistik tadqiqotlar chek qo‘ygan. Nutqiy patologiyasi bor bemorlar kuzatilganda, ularning gapishtirishi va tushunishida farq borligi aniqlangan. Masalan, Broka afaziyasiga chalingan bemorlar gapni nisbatan yaxshi tushunadi, biroq yaxshi gapira olmaydi, ularning nutqi telegrafik xarakterda bo‘ladi. Shuningdek, afaziyaga chalingan kishi bir narsaning nomini og‘zaki aytganda boshqacha, yozma yozib berganda boshqacha aytish holatlari kuzatilgan. Masalan, B.Rapp va A.Karamasa bir bemor rasmni yozma va og‘zaki nomlashda ikki xil natija ko‘rsatganligini qayd etganlar<sup>1</sup>. Jumladan, bemorga cho‘tkaning rasmi ko‘rsatilganida bemor yozma javobda “cho‘tka” deb yozgan bo‘lsa-da, og‘zaki javobda “taroq” degan. Shuningdek, piyoz rasmi ko‘rsatilganda yozma “piyoz”, og‘zaki “banan”, boyo‘g‘li rasmi ko‘rsatilganda yozma “boyo‘g‘li” og‘zaki “toshbaqa” javoblarini bergen. Bu kabi tajribalar natijalari umumlashtirilib

<sup>1</sup> Rapp, B. C., & Caramazza, A. (1997). The modality specific organizations of lexical categories. *Brain and Language*, 56, 246-286.

so‘zning inson ongida aks etish modeli yaratilgan. A.Ellis va A.Yang muallifligidagi ushbu model markazida semantik tizim turadi. Unda ikkita qabul qiluvchi tizim: ko‘rish tahlil tizimi va eshitish tahlil tizimi; ikkita chiquvchi tizim: fonema va grafema darajasi mavjud<sup>2</sup>.



**1-rasm.** Ellis va Yangning so‘zni qayta ishslash modeli.

**So‘zning insonon tomonidan qayta ishslashning psixolingvistik modeli.** Eshitish tahlil tizimi orqali nutq tovushlari qabul qilinib olar ekan, u audio-kirish leksikonidagi mavjud so‘zlar bilan solishtiriladi va so‘z nutqiy oqimdan ajratib, so‘z sifatida anglanadi, mazkur shaklga bog‘langan ma’no faollashadi. Mohiyatan olganda biz nutqni turli chastotalarga ega tovush to‘lqinlari sifatida qabul qilamiz. Mazkur to‘lqinlar insonning qulq pardasini turli chastotalarda tebratadi. Bu tebranishlar insonning eshitish tizimi orqali bosh miyaga uzatiladi. Biz eshitib tanigan so‘z – bu bir xilda takrorlangan to‘lqin chastotalari demak. Uning ma’nosи esa o‘sha to‘lqin chastotalari guruhi qabul qilinganda inson turgan vaziyat bilan bog‘liq holda shakllangan bo‘ladi. Shu zaylda insonda audio-kirish

<sup>2</sup> Ellis, A.W., & Young, A.W. (1988). Human cognitive neuropsychology. Hove, UK: Lawrence Erlbaum Associates Ltd.

leksikoni shakllanadi. Matnni o‘qiganimizda esa biz tekislikda aks etgan turli chiziqlar majmuini qabul qilamiz, ular grafema deb ataladi. Mazkur grafemalarga ma’lum til tizimidagi fonemalar shartli ravishda bog‘langan bo‘ladi. Insonda o‘qish tajribasi ortib borar ekan, u so‘zlarni harflab emas, butun qabul qilish darajasiga chiqadi. Bunda so‘zning boshidagi va oxiridagi harf muhim bo‘ladi. Grafemalarning ma’lum kombinatsiyalari ko‘p takrorlanishi ortidan insonda vizual kirish leksikoni shakllanadi. Shifokorlarning yozuvi xunuk degan stereotip mavjud. Ular yozgan retseptni nima uchun bemor yoki oddiy sotuvchi o‘qiy olmaydi, lekin dorixonadagi farmasevt o‘qishda qiyalmaydi? Shifokor retseptda dorilarning nomini yozadi. Dorilarning nomi so‘z sifatida bizning lug‘atimizda faol qo‘llanuvchi so‘zlar sirasiga kirmaydi. Odatda, biz u dorining nomiga birinchi marta duch kelamiz, ya’ni bizning vizual kirish leksikonimizda dorining nomi birlik sifatida mavjud emas. Farmasevtning vizual leksikonida esa u so‘z bor, shuning uchun shifokorning yozuvi qanchalik tushunarsiz bo‘lmisin, farmasevt o‘zi tanigan ayrim harflar kombinatsiyasidan gap aynan qaysi dori haqida ketayotganligini anglay oladi. Inson so‘zlar ekan uning nutq apparati ishlaydi. Uni ishlatishni inson chaqaloqligida turli tovushlarni chiqarib sinab ko‘rish orqali o‘rganadi. Bola talaffuzda avval tovush, keyin bo‘g‘in, keyin so‘zga o‘tishi ham nutq apparatini boshqarishni sekin-sekin, oddiydan murakkabga tomon o‘zlashtirishini dalillaydi. O‘zbek bolalarining aksariyati *non* emas *nanna* deyishi bola hali nutq apparatini to‘liq boshqara olmayotganini bildiradi. Xususan, o – lablangan unli, uni talaffuz qilish lablanmagan unli bo‘lgan a unlisiga nisbatan ko‘proq harakat talab qiladi. So‘zni undosh bilan tugatish o‘pkadan og‘iz bo‘shlig‘i orqali chiqayotgan havo oqimini to‘xtatish demak. Unli bilan tugatish esa qo‘srimcha harakat talab qilmaydi. Shuning uchun bola so‘zlarni avval nutq apparatini boshqarishni o‘rgangan darajasida talaffuz qiladi va bu odatda kattalarning talaffuzi bilan bir xil bo‘lmaydi. Bola o‘zi talaffuz qilgan so‘zni eshitadi va kattalarniki bilan solishtira olgani uchun o‘z xatosini anglaydi, o‘z

talaffuzi ustida ishlashi ortidan so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzini o‘zlashtiradi. So‘zni talaffuz etish murakkab jarayon. Masalan, shu *non* so‘zini olaylik: o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi ovoz paychalari, og‘iz bo‘shlig‘i va burun bo‘shlig‘iga taqsimlanib, tilning old qismini tanglayga tekkizib og‘iz bo‘shlig‘idagi havo oqimini to‘sib, n undoshini talaffuz qilish, keyin tilni pastga tushirib, tilning orqa qismidagi muskullarni, lablarni harakatlantiruvchi muskullarni qisqartirish bilan o unlisini talaffuz qilish, keyin tilni yana avvalgi joyiga qaytarib n undoshini talaffuz qilish demakdir. Har bir muskul qisqarishi uchun bosh miyadan alohida signallar jo‘natiladi. Ma’lum so‘z qayta-qayta talaffuz qilinar ekan, uning talaffuzi uchun ishlaydagan muskullarga jo‘natiladigan signallarni boshqaruvchi neyronlar o‘rtasida aloqa mustahkamlanib boradi. Shu asosda insonda og‘zaki chiqish leksikoni shakllanadi. Grafemik chiqish leksikonining shakllanishida ham shu kabi tamoyilga amal qilinadi, faqat unda qo‘lning harakatini nazorat qiluvchi neyronlar guruhi ishlaydi. Bitta so‘z misolida og‘zaki va yozma shakl qabul qilishda hamda yaratishda qanday farqlanishini ko‘rib chiqdik. Endi bevosita tilni qo‘llashdagi to‘rt malakaning har biriga alohida to‘xtalamiz.

**Eshitib tushunish.** Eshitish insonning lisoniy qobiliyati shakllanishidagi asosdir. Inson bolasi homilalik davrida eshitishni boshlaydi<sup>3</sup>. Psixolingvistik tadqiqotlarda yangi tug‘ilgan bola o‘z ona tilisini boshqa tillardan farqlashi isbotlangan. Inson tilni eshitib qabul qiladi, shu asosda inson ongida til tizimi shakllanadi. Maktab yoshiga yetgan bola o‘z muloqot tajribasi doirasida eshitib tushunish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Ona tilini o‘zlashtirish borasida qilingan tadqiqotlardan ma’lumki, bola oilada ota-onasi va boshqa kattalar tomonidan qo‘llangan so‘zlar va gaplarni o‘zlashtiradi. Demak, maktabga kelgan bolalarning lisoniy tajribasi bir-biridan farq qiladi. Maktabga kelgan bola o‘zi ko‘nikkan lisoniy muhitdan butkul farq qiluvchi muhitga tushadi va shunga mos ravishda unga yuklangan kommunikativ vazifa ham o‘zgaradi. U endi nutqni qisqa bitta yo

<sup>3</sup> Clark, Eve V. First Language Acquisition. New York: Cambridge University Press, 2003. Pp. xvi,515. ISBN 0-521-62997-7

ikkita gap hajmida emas, dars mavzusi doirasida qurilgan kattaroq hajmdagi og‘zaki nutqni eshitib tushunishi, unda aytilgan masalalarini bilim sifatida o‘zlashtirishi lozim bo‘ladi. Bolada birinchi qiyinchilik tug‘diradigan narsa bu bola dekodlashi, ya’ni tushunishi kerak bo‘lgan lisoniy birlik tuzilish jihatdan murakkabroq va hajman kattaroq bo‘ladi. Bolaning ongi bu o‘zgarishga moslashishi uchun eshitib tushuniladigan materiallar soddadan murakkabga qarab berib borilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, bolada eshitib tushunish mashq qildirilishi kerak. Bolaga eshittirilayotgan matnning diqqat talab qildigan qismlariga urg‘u bergen holda bolaga topshiriq berish bolada eshitish davomida diqqatni ushslash ko‘nikmasini shakllantiradi. Tushunish jarayoni o‘rganilganda shu narsa ma’lum bo‘lganki, eshituvchining emotsiyonalligi va stereotiplari sabab eshituvchi berilgan matnni to‘liq eshitmasligi mumkin<sup>4</sup>. Bu ham eshitib tushunishga xalal beradigan holat bo‘lgani uchun o‘rta maktabdagagi mashg‘ulotlar davomida alohida e’tibor talab qiladi. Bola tushunishda yo‘l qo‘ygan xatolari muntazam ravishda ko‘rsatilsa va xatoning asosi tushuntirib borilsa, bola tushunish jarayonini ongli ravishda boshqarishga o‘rganadi. Masalan, sevgi haqidagi bir qo‘shiqning klipida xonanda va cholg‘uchilarining orqasidagi fonda dunyo xaritasi turibdi. “Qo‘shiq global masala haqida emas, sevgi haqida bo‘lsa, klipda dunyo xaritasiga nima bor?” degan savol kishini o‘ylantiradi. Savolning javobi qo‘shiq so‘zlaridan kelib chiqadi: “*yuragimni chizib berdim, qaramading, xaritasin tuzib berdim, qaramading...*” Ayni vaziyatda xarita so‘zi bilan dunyo xaritasi sifatida qabul qilingan. Matnning bir parchasi (ayni vaziyatda matndagi bir so‘z) ta’sirida yuzaga kelgan assotsiatsiya tushunishning boshlang‘ich darajasida ongda hosil bo‘ladi va matn mazmuni to‘lig‘icha qabul qilinganda u chetga chiqishi kerak. Masalan, kishi “*yuragim...xaritasin tuzib berdim*” jumlasini eshitish jarayonida *xarita* so‘zini alohida qabul qilganda dunyo xaritasi tushunchasi unga assotsiatsiya bo‘lishi mumkin. Ammo *xarita* so‘zini qo‘shiq matni ichida u bog‘langan *yurak*

<sup>4</sup> Azimova I.A. O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darjasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2008. B. 124.

so‘zi bilan birga qabul qilar ekan, uning ko‘chma ma’noda qo‘llanganini xulosa qiladi va *dunyo xaritasi* tushunchasi tushunish jarayonida boshqa ishtirok etmasligi kerak. Keltirilgan misolda *dunyo xaritasi* tushunchasi klipga orqa fongacha yetib borganligidan bilish mumkinki, *xaritasi* so‘zining matn ichidagi ma’nosni recipient tomonidan qabul qilinmagan, balki alohida so‘z sifatida qolib ketgan. Mazkur holatlar bizga tushunish jarayonidagi tafsilotlar haqida ma’lumot beradi. Ona tili o‘qituvchisining matnni tushunish jarayonidan to‘liq xabardor bo‘lishi, undagi har bir darajada qanday lisoniy birliklar ishlashini bilishi bolaning tushunishiga to‘g‘ri baho berish va uning tushunish qobiliyatini o‘stirishga xizmat qiladi.

**O‘qib tushunish.** Maktabda birinchi sinfda harflar va yozma matnni o‘qish o‘rgatiladi. Keyinchalik o‘qish darslarida matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasiga e’tibor qaratiladi. 5-sinfdan keyin matnni tushunish faqat adabiyot darslari bilan cheklanadi. Ona tili darslarida ham ba’zan matndan parchalar beriladi, ammo ular bevosita o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilmagan. Adabiyot fani badiiy matn bilan ishlaydi. Badiiyat obrazlar bilan ish ko‘rar ekan, unda matnda qo‘llangan vositalarni to‘g‘ri dekodlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmaydi. Ona tili fani doirasida esa grammatik qonun-qoidalar matndan uzib olingan alohida gaplar misolida tushuntiriladi, matnni til birligi sifatida o‘rganish, tahlil qilishga ko‘p e’tibor qaratilmaydi. Matnni o‘qib tushunish murakkab psixolingvistik jarayon bo‘lib, grafemalarni tanish, so‘zni o‘qish, so‘zning lug‘aviy ma’nosini, kontekstual ma’nosini anglash, sintaktik strukturani to‘g‘ri hal etish (ya’ni so‘zlarning o‘zaro munosabati, qaysi so‘z gapdagi asosiy tushunchani, qaysilari unga tobe tushunchalarni ifodalayotganini anglash), shuningdek, matn mazmuniy bloklarining o‘zaro bog‘lanishini tushunish kabi darajalardan iborat bo‘ladi<sup>5</sup>. Mazkur darajalar matnni tushunish, uning mazmuniy proeksiyasini ongda hosil qilgunga qadar kechadigan jarayonlar bo‘lib, matnni o‘qib chiqqan har bir o‘quvchi mazkur darajalardan o‘tib matnni to‘liq tushunadi deb bo‘lmaydi. Har bir

---

<sup>5</sup> O‘sha manba. 65-79.

o‘quvchining qabul qilish qobiliyati har xil bo‘lgani uchun matnni bir xilda o‘qib chiqqanlar tushunishning har xil darajasida turgan bo‘ladi. O‘qituvchi ushbu darajalarni yaxshi bilsa, savollar yordamida o‘quvchining qaysi darajada turganini aniqlashi, matnni yaxshiroq tushunishi uchun yo‘nalish berishi mumkin bo‘ladi. Ona tili darsliklaridagi matn bilan ishslash mashqlari ham mazkur nazariy ma’lumotga asoslanishi lozim. Masalan, matnni tushunishning dastlabki darjasи assotsiativ daraja bo‘lsa, unda o‘quvchida matn mavzusi, matn uslubi va matndagi so‘zlarga assotsiatsiyalar yuzaga keladi. Keyingi daraja bu leksik-morfologik daraja bo‘lib, bunda o‘quvchi matndagi so‘zlarni va ularning ma’nosini tushunadi. Uchinchi daraja kontekstual daraja bo‘lib, unda so‘zlearning kontekstual ma’nolari anglashiladi. Fikrimizcha, matn bilan bog‘liq mashqlarda aynan shu uchinchi darajaga ko‘proq urg‘u berilishi kerak, chunki unda so‘zlearning matn ichida qanday ma’noda kelayotgani anglashiladi, demakki, so‘zlar alohida birlik darajasidan matn mazmunining tarkibiy qismi darajasiga ko‘tariladi. O‘quvchiga matnda ma’lum tushunchani ifodalayotgan so‘zlarni va so‘z birikmalarini topish, matndagi jumlanı o‘z so‘zlar bilan ifoda etish kabi topshiriqlar so‘zning kontekstual ma’nosiga yaxshiroq e’tibor berishga undaydi. Shu kabi mashqlar asosida bolada matnni diqqat bilan o‘qish ko‘nikmasi shakllanib boradi.

**Og‘zaki nutq.** Inson hayotining dastlabki vaqtidanoq muloqot ehtiyoji sabab tilni o‘zlashtiradi, gapirishga harakat qiladi. Yillar davomida tajriba asosida og‘zaki nutq o‘zlashtiriladi. Jonli suhbatdan tashqari biror nutq so‘zlash talab qilingan vaziyatda jamiyatimizda odatda, bir xil gaplar aytilganiga guvoh bo‘lamiz. To‘yda tabrik aytilganda “Baxt tilayman, doim baxtli bo‘ling” kabi jumlalar, biror kino yoki hodisaga munosabat so‘ralganda aksariyat so‘zlovchilar “menga yoqdi, shunday kinolar ko‘paysin” deb javob beradi. Bunday nutqlarda tahlil, xulosa emas, faqat munosabat aks etadi. Mazkur munosabat ham yo salbiy, yo ijobjiy bo‘ladi. Vaholangki, hodisani har kim o‘z ongi, hayotiy tajribasidan kelib chiqib qabul qiladi va har kimning o‘z talqini bo‘ladi. O‘rta ta’limda bolaning og‘zaki

nutqi biror fandan o'tilgan ma'lum mavzuni gapirib berishda ko'rildi. Bunda bolaning mavzuni bilish-bilmasligi baholanadi, og'zaki nutq mahorati alohida e'tiborga olinmaydi. Ona tili darslarida og'zaki nutq uchun alohida mashg'ulotlar ishlab chiqilishi zarur. Bunda birinchi navbatda bolaning o'z fikrini lisoniy vositalar yordamida to'g'ri ifodalash, mavjud lug'at boyligidan oqilona foydalanish, bir mavzudan chetga chiqmay gapirish, nutqni to'g'ri strukturalashtirish, ya'ni mavzuga kirish, asosiy fikrni aytish va xulosalash; aytadigan gapi eshituvchiga qanday ta'sir qilishini oldindan baholay olish, tinglovchining diqqatini ushlab turish kabi ko'nikmalar shakllantirilib, takomillashtirilib borilishi zarur. Bu kabi mashg'ulotlarda faqat monologik nutq bilan cheklanmasdan, suhbat, bahslar tashkil etish, bahsda o'z fikrini bayon qilish va boshqalarning fikrini tinglash, ularga munosabat bildirish kabi ko'nikmalar shakllantirilishi kerak. Inson ongingin ishlashi tajribaga asoslanadi. Shuning uchun bolada qaysi ko'nikma hosil bo'lishi maqsad qilinsa, darslarda o'sha bo'yicha mashqlar muntazam tashkil qilinish kerak.

**Yozma nutq.** O'rta ta'limda qo'llanadigan yozma nutq shakllari asosan, bayon, diktant va inshodan iborat. Bayon va inshoda boladan ijodiylik talab qilinadigan, u faqat badiiylik nuqtai nazaridan baholanadi. Mavzular ham asosan badiiy uslubga mos holda tanlanadi. Ma'lumki, badiiy matn uchun badiiy tafakkur zarur, badiiy tafakkurning asosida insonning individual hayotiy tajribasi yotadi, ya'ni ma'lum ruhiy holat hayotda kuzatilgan ma'lum predmet yo hodisa bilan assotsiatsiyalanadi. Tabiiyki, professional yozuvchi va maktab o'quvchisining o'rtasida yosh jihatdan, hayotiy tajriba jihatidan katta farq bor. Yozuvchi qo'llagan jumla va obrazlar har doim ham maktab o'quvchisi uchun tushunarli bo'lmashligi mumkin. Til ta'limidagi bu nomutanosiblik o'quvchi til malakasining rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Natijada, bola o'z mustaqil fikrini o'z so'zlarini bayon qilmay, odatda eshitgan tayyor jumlalardan foydalanishga harakat qiladi. Shu bilan bog'liq holda bola yozishga bo'lgan rag'batini yo'qotib qo'yishi yoki

umuman paydo qilmasligi mumkin. Yozma nutqni rivojlantirish uchun tanlangan mashg'ulot mavzulari dars berilayotgan vaqt uchun dolzarb va o'quvchi uchun qiziq bo'lishi kerak. Shunday mavzu tanlanishi kerakki, bola o'sha haqida fikr bildirish istagi kuchli bo'lsin. U xoh kecha bo'lib o'tgan futbol matchi bo'lsin yoki mashhur serial bo'lsin. Mazkur masalalarga bo'lgan qiziqishdan bolaning kognitiv rivojlanishini ta'minlash uchun samarali foydalanish mumkin.

Shuningdek, turli mavzu va uslubdagi matnlar yuzasidan yozma topshiriqlar bajarish o'quvchining yozma nutq haqidagi bilimi tasavvurlarini kengaytiradi. Bunday topshiriqlar matndan ma'lum kommunikativ vazifada qo'llangan so'z va so'z birikmalarini topish, ularning nima uchun qo'llanganligiga izoh berish, matn ichidan matnning bir butunligini ta'minlab turishga xizmat qiladigan vositalarni aniqlash, matn va uning boshqa muallif tomonidan yozilgan bayonini qiyoslash kabi mashqlar yozma nutqning charxlanishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagilarni xulosalab shuni aytish mumkinki, har qanday dars psixolingvistik jarayondir, chunki bola unda til vositasida berilgan ma'lumotni dekodlaydi yoki o'z bilimini ifodalash uchun kodlaydi. Insonning har qanday kognitiv ko'nikmasi tajriba asosida shakllanadi. Mazkur xulosa sun'iy ong yaratishga urinishning dastlabki paytida vujudga kelgan. Olimlar hatto shaxmat o'ynashday o'ta mantiqiy jarayonda ham tajriba hal qiluvchi ahamiyatga egaligini qayd etganlar. Boshqacha aytganda, qoidani yodlash har doim ham uni amalda samarali qo'llashni ta'minlaydi degani emas. Insonning til malakalarini qanday namoyon qilishi vaziyat, tinglovchi, ruhiy holat, kayfiyat, taassub kabi omillar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq ekan, nutq jarayonida bu omillarni va ularning ta'sirini farqlay olish nutqning nazorat qilinishini qoidalarga nisbatan yaxshiroq ta'minlaydi. Shuning uchun ham o'rta ta'limda ona tili darslari eshitib va o'qib tushunish, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilishi kerak.

***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. To‘rt xil lisoniy malakaning umumiylari va farqli jihatlari nimadan iborat?
2. Eshitib tushunishda input – kirish signali nima?
3. Eshitib tushunish jarayonida perceptiv birlik nima?
4. Audio-kirish leksikoni nima?

***ADABIYOTLAR RO‘YXATI:***

1. Azimova I., Mavlonova K., Kuldasheva S., Tursunov Sh. O‘zbek adabiy tili:amaliy qo‘llanma. Toshkent, 2019. 158 b.
2. Azimova I.A. O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy pertsepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Monografiya. Toshkent, 2020. B.19-24.
3. Azimova, I. Ona tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Global ta’lim va milliy metodika. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2019. B. 215-224.
2. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. Toshkent, 1997.
3. Dahan, D. Magnuson, J.S. (2006) Spoken Word Recognition. In Handbook of Psycholinguistics. Elsevier Inc. P. 249-284.
4. Douglas Brown, H. (2002). English Language Teaching in the “Post-Method” Era: Toward
5. Better Diagnosis, Treatment, and Assessment. In Methodology in Language Teaching. Cambridge University Press. P. 9.
6. Ellis, A.W., & Young, A.W. (1988). Human cognitive neuropsychology. Hove, UK: Lawrence Erlbaum Associates Ltd.
7. Jo‘rayev A. Standart o‘zbek tili. Toshkent, 2017.

**2-MAVZU:**

**TIL TA'LIMI JARAYONINI PSIXOLINGVISTIK  
BAHOLASH ZARURIYATI**

***REJA:***

- 1. Til va tipologiya**
- 2. Ona tilini o'zlashtirish bosqichlari**
- 3. Ona tilini o'zlashtirishda mavjud muammolar**

**Tayanch tushunchalar:** bolalar nutqi, til o'zlashtirish, tashqi ta'sir, muloqot, protosintaktik belgilar, semantik differensatsiya, tashqi nutq.

**Til va tipologiya.** Bolalar nutqini o'rGANISHNING tilshunoslik uchun ahamiyati katta, chunki bola tomonidan tilning o'zlashtirilishini tekshirish yordamida tilning paydo bo'lishi va evolutsiyasi, insonda lisoniy qobiliyatning shakllanishi kabi masalalarga aniqlik kiritish mumkin. Bola umrining birinchi haftasidayoq tashqi ta'sirlarga javob bera boshlaydi, onasini kuzatadi, erkalaganda jilmayishga harakat qiladi. Bola 3-5 oylik davrida oyoq-qo'llarini qanday qimirlatsa, tilini ham shunday qimirlatadi. Turli tovushlarni talaffuz qiladi. Bir oz vaqt o'tgach, bola o'zi yeshitayotgan tovushlarga taqlid qilishga harakat qiladi, ya'ni atrofidagilar bilan o'ziga xos muloqotga kirisha boshlaydi. Bu bola ongida til sistemasi shakllanayotganidan guvohlik beradi. Bu sistema avval juda soda bovlsa-da, sekin-sekin rivojlanib boradi. 7-8 oylik bolalar bo'g'inga o'xshash elementdan unli va undosh tovushlar (lab-tish sohasida hosil bo'luvchi m, d ga o'xshash undoshlar, til orqa undoshlari g, k ga o'xshash gx, gk kabi tovushlar)ni talaffuz qilishga o'tadilar. Bolaning ilk so'zlari kattalar nutqidagi oyi, aya, opa, dada kabi so'zlarga o'xshash bo'ladi. Ko'pincha o'zbek bolalari talaffuz qilgan birinchi so'z "dada" so'zi bo'ladi. Turli tillarda yuqoridagi so'zlarga talaffuz jihatdan yaqin bo'lgan

so‘zlar (daddy-inglizcha, dada-o‘zbekcha, dyadya-ruscha yoki papa- ruscha, opa-o‘zbekcha) aynan bir ma’noni anglatmasa-da, bu so‘zlar bilan bolaga eng yaqin insonlar ataladi.

2-3 oylardan so‘ng, ya’ni bola 10-11 oyligida protosintaktik belgilar (emotsional harakterga ega) paydo bo‘ladi. Ilk semantik differensatsiya bola o‘zini qanday his qilishi bilan bog‘liq bo‘lib, avval u filologik reaksiya, keyinchalik yesa semantik funksiya kasb yetadi. Bola noqulay bo‘lgan sharoitda (qorni ochsa, sovuq qotsa) bir tipdagi signallar, qulay sharoitda yesa boshqa tipdagi signallarni beradi. Bolada til sistemasi fiziologik signallar bazasida shakllana boshlaydi. Avval boshlang‘ich, keyin yesa ham semantik, ham fonetik jihatdan murakkablashib boruvchi differensatsiya boshlanadi. Keyinroq semantika rivojlanadi, so‘ng sintaksis. Bir yoshlar atrofida “so‘z-matn”lar paydo bo‘ladi. Oddiy intonatsion konturlar yordamida aniq differensatsiyalar paydo bo‘ladi.

Bola 1,5 yoshga yetganda ikki so‘zli gaplar hosil bo‘ladi. Bu paytda bolada sintaktik ko‘nikma yo‘qday ko‘niksa-da, so‘zlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlik sezilib turadi. Bola o‘sish jarayonida ikki so‘zli gaplar murakkablasha borib 3-4 so‘zli gaplarga aylanadi. So‘z ko‘payishi bilan struktura murakkablashadi va o‘ziga xos sintaktik vositalar paydo bo‘ladi.

Bola nutqining keyingi rivojlanish bosqichi semantikaning shakllanishi bilan bog‘liq. So‘z avval bolada sof situativ nom sifatida hosil bo‘lgan bo‘lsa, yendi uning tushunchaviy tomoni paydo bo‘ladi va so‘z umumiy, bir qator holatlarni xarakterlovchi tushunchaga aylanadi.

Ikki yoshdan so‘ng bola morfemika va so‘z yasash qoidalarini o‘zlashtiradi. Bu davrda bolalarning o‘ziga xos ijodkorligi namoyon bo‘ladi. Bolaning ijtimoiy ehtiyojlari so‘z boyligiga qaraganda tezroq o‘sadi. Shuning uchun bola so‘z yasash qoidalarini o‘zlashtirgach, ulardan unumli foydalanadi. Keyinchalik bu o‘ziga xos xususiyat kattalar ta’sirida yo‘qoladi.

Bola o‘z faoliyati davomida kattalarga taqlid qiladi, shu bilan birga o‘zi ham kattalardan o‘zlashtirgan qoidalar doirasida mustaqil harakat qiladi. Bola boshida kattalardan faqat tashqi nutqiy faoliyatni o‘zlashtiradi, bu paytda u faqat ovoz chiqarib o‘yaydi. Agar unga biror qiyinroq masala berilsa, unda hech qanday suhbatdoshga qaratilmagan tashqi nutq paydo bo‘ladi. Bola katta yoshga yetgandagina ichida o‘ylashga o‘rganadi.

**Ona tilini o‘zlashtrish bosqichlari.** Til sistemasini o‘zlashtirish murakkab jarayon. Uning qachon boshlanib qachon tugashini aniq chegaralash mumkin emas. Bu jarayonning eng faol keluvchi davri insonning 3-5 yoshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrdagi bola nutqini o‘rganish tilshunoslik uchun muammo bo‘lgan ko‘pgina masalalarni oydinlashtirish uchun qimmatli materiallar beradi.

### Ch. Osgudning til darajasi nazariyasi

Charlz Osgud nutqning yaratilishi va nutqni idrok qilish masalalarini til darajasi nazariyasi nuqtayi nazaridan hal qilishga urindi. U til darajasi nazariyasini taklif qilar ekan, nutqning yaratilish jarayonida (nutqni kodlashda) quyidagi to‘rt bosqichning mavjudligini taxmin qiladi.

1. Motivatsiya bosqichi (motivational level). Motivatsiya bosqichining birligi sifatida keng nogrammatik tushunchadagi gap tushuniladi. Bu bosqichda so‘zlovchi tomonidan umumiy xarakterdagi qarorlar qabul qilinadi:

- a) gapishtirish yoki gapirmaslik;
  - b) agar gapiriladigan bo‘lsa, qanday shaklda – darak, so‘roq yoki buyruq shaklida;
  - c) agar shakl tanlangan bo‘lsa, uni gapda ifodalash uchun qanday vositalardan foydalanish kerak – masalan, faol yoki nofaol shakl;
  - d) mantiqiy urg‘uda nima ajratiladi, intonasiyaning qanday modeli tanlanadi.
2. Semantik bosqich (semantic level). Mazkur bosqichda so‘zlovchi gapdagi muayyan ketma-ketlikdagi so‘zlarni – funksional guruhlarni tartibi bilan ajratadi. Osgudga ko‘ra, har qanday gap kodlangan birliklarga ajralishi mumkin:

Talantli rassom – qiziqarli rasm – chizyapti.

3. Ketma-ketlik bosqichi (sequential level). Ushbu bosqichning birligi semantik birlik emas, balki so‘z, ya’ni fonetik so‘zdir. Kodlash jarayonining bu bosqichida ketma-ketlik sifatida quyidagi mexanizmlar ishtirok etadi:

- a) tovushlar ketma-ketligini aniqlash;
- b) “katta segmentlar” bilan ish ko‘radigan grammatik ketma-ketliklar mexanizmi.

4. Integratsion bosqich (integrational level). Mazkur bosqichning birligi sifatida bo‘g‘in ishtirok etadi. Bu bosqichda kodlashning motor mexanizmlari faoliyat ko‘rsatadi va o‘rganib chiqilgan ifodaning tovush tomoni shakllanadi.

Taqdim qilingan ushbu model nutqning yaratilish jarayoni haqida umumiylasavvur beradigan dastlabki urinish edi.

### L.S.Vigotskiy modeli

L.S.Vigotskiy nutq yaratilishi jarayonining mohiyatini aniqlash uchun “fikrdan ma’noga, ma’nodan so‘zga” degan ta’limotni ilgari surdi. L.S.Vigotskiyga ko‘ra, “Markaziy g‘oya umumiyl formulada ifodalanishi mumkin: fikrning so‘zga nisbatan munosabati, avvalo, narsa emas, jarayondir. Bu munosabat fikrdan so‘zga va aksincha, so‘zdan fikrga bo‘lgan harakatdir. Fikrning ushbu yo‘nalishi ichki harakat sifatida qator rejalar orqali amalga oshadi...”<sup>6</sup>.

L.S.Vigotskiyning “ichki so‘z” haqidagi g‘oyasi ichki nutq to‘g‘risidagi fikrlarning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Unga ko‘ra, ichki nutq “fikr va so‘z o‘rtasidagi dinamik munosabatlar oralig‘i bo‘lgan botiniy nutqning alohida ichki rejasidir”. Olim ichki nutqning quyidagi xususiyatlarini qayd qiladi:

- u fonasiyadan, ya’ni tovushlarning talaffuz qilinishidan xoli;
- u predikativ (ega tushiriladi va unda har doim kesim mavjud) bo‘ladi;
- u qisqartirilgan nutq (so‘zsiz nutq)dir<sup>7</sup>.

<sup>6</sup> Выготский Л.С. Мышление и речь // Собр. соч.: в 8 т. –М., 1982. Т.2. –С. 305.

<sup>7</sup> Белянин В. П. Психолингвистика. –М., 2004. –С. 81.

Oxirgi xususiyatni o‘rganish jarayonida L.S.Vigotskiy ichki nutq semantikasining shunday o‘ziga xosliklarini ta’kidlaydi: ma’nuning so‘zdan ustunligi; so‘z ma’nolarining qo‘silib ketishi; ichki nutq semantikasining so‘z semantikasi bilan mos kelmasligi.

“Har qanday fikr, - deb yozadi L.S.Vigotskiy, nimanidir nima bilan bog‘lashga intiladi va harakatga ega bo‘ladi. Fikrning mazkur oqimi va harakati yoyiq nutq bilan bevosita va bilvosita mos kelmaydi. Chunonchi, fikr birligi va nutq birligi nomutanosibdir”. Olimning qarashicha, “ichki nutqni tashqi nutqqa o‘tishi predikativ va idiomatik nutqning boshqalar uchun tushunarli, sintaktik bo‘lakli nutqqa aylanadigan murakkab dinamik transformatsiyadir”.

L.S.Vigotskiyning fikricha, fikr nutqqa aylanguncha bir necha bosqichlarni o‘tishi lozim. 60-70-yillarda rus psixolingvistikasi tomonidan ishlab chiqilgan nutq yaratilishining barcha psixolingvistik modellarida L.S.Vigotskiy tomonidan taklif qilingan ta’limotning rivojlantirilganligi va aniqlashtirilganligini ko‘rish mumkin. Binobarin, nutq yaratilishining birinchi bosqichi uning motivatsiyasidir. Nutq yaratilishining ikkinchi bosqichi fikr bo‘lib, u nutqiy maqsad (niyat) tushunchasiga mos keladi. Uchinchi bosqich fikrning ichki so‘z vositasida ifodalanishi bildirib, u zamonaviy psixolingvistikada nutqiy ifodaning ichki dasturlanishiga muqobil bo‘ladi. To‘rtinchi bosqich fikrning tashqi so‘zlarining ma’nolari orqali ifodalanishi yoki ichki dasturning amalga oshishidir. Vanihoyat, oxirgi beshinchi bosqich fikrning so‘zlar vositasida ifodalanishi yoki nutqning akustik-artikulyatsion amalga oshishidir.

### A. R. Luriya modeli

L.S.Vigotskiy nutq yaratilishining shakllangan modelini taklif qilmagandi, u faqat umumiy psixologik tamoyillarnigina ko‘rsatib bergandi. L.S.Vigotskiyning g‘oyalari keyinchalik neyrolingvistika yo‘nalishiga asos solgan rus psixolog Aleksandr Romanovich Luriya (1902-1977) tomonidan rivojlantirildi. Olim

ifodaning dinamik sxemasi haqidagi ta'limotni ishlab chiqadi. Unga ko‘ra, mazkur dinamik sxema ifoda fikr bosqichining qismi hisoblanadi.

A.R. Luriya modelida ifoda shakllanishining markaziy muammosi fikrning ma’noga aylanishidir. Nutqiy ifodaning yaratilishi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Jaryonning boshida motiv turadi. Undan so‘ng fikr paydo bo‘ladi va u keyinroq ifodaga aylanadi. So‘ng jarayonga ichki nutq qo‘shiladi va u botiniy sintaktik strukturalarning shakllanishiga olib keladi. Vanihoyat, zohiriy sintaktik strukturalarga asoslangan tashqi yoyiq nutqiy ifodalar yuzaga keladi<sup>8</sup>.

A.R. Luriya modelidagi bosqichlarning batafsil izohini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

1. Birinchi bosqich “semantik qayd” yoki chiqish sxemasidir. Semantik qayd “keyinchalik bir-biri bilan uzviy bog‘langan so‘zlar tizimiga aylanishi lozim bo‘lgan yig‘iq nutqiy ifoda xususiyatiga ega bo‘ladi”. Ifodaning chiqish sxemasi yoki “semantik qaydi” ikki qism: tema va remadan tarkib topadi. Nutqiy ifodaning chiqish sxemasiga aylanishi ichki nutq vositasida amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, nutq yaratilishining dastlabki jarayonida sxema o‘ta yig‘iq va bo‘laklarga ajralmagan bo‘lib, uning birliklar majmuyiga aylanishi keyinroq sodir bo‘ladi.

2. Ichki nutq. Nutqiy ifoda shakllanishining ushbu bosqichida ichki fikr “nutqiy ma’nolarning yoyiq sintaktik tizimiga” o‘tadi. “Semantik qayd”ning birgalik sxemasi bo‘lajak yoyiq sintaktik ifodaning tarkibiy strukturasida qayta kodlashadi.

3. Yoyiq nutqiy ifodaning shakllanishi. A.R.Luriyaning fikricha, yoyiq nutqiy ifoda bir tomonidan, muloqot va xabarni uzatish jarayoniga kiritilgan bo‘lsa, boshqa tomonidan, “uning tarkibiga bir emas, balki o‘zaro aloqadagi bir necha gaplar silsilasi kiradi”. Olimning ta’kidlashicha, yoyiq nutqiy ifoda tarkibiga kiradigan ibora yoki gaplarni kontekstdan tashqarida o‘rganish mumkin emas.

<sup>8</sup> Лурия А.Р. Речь и мышление. –М., 1975.

Bundan tashqari, yoyiq ifoda tarkibiga kiruvchi gaplar referent ma’no (til birligi ifodalaydigan tushuncha – Sh.Usmanova) bilan birga, muloqot jarayonida yuzaga chiqadigan ijtimoiy-kontekst ma’nolariga ham ega bo‘ladi. Aynan shuning uchun ham “ifoda shakllanish jarayonini lingvistik tahlil qilishning o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Bu jarayonni muloqot vaziyati, so‘zlovchining motivi, xabarning mazmuni va bu xabarga tinglovchining munosabati va h.k. hisobga olgan holda keng qamrovli psixologik (hatto ijtimoiy-psixologik) tahlil qilish lozim bo‘ladi”<sup>9</sup>.

Qayd qilingan barcha xususiyatlar A.R.Luriyaga nutqiy ifodani boshqa psixik faoliyatlar kabi psixologik strukturaga ega bo‘lgan nutqiy faoliyatning alohida turi sifatida tadqiq qilishiga asos berdi.

Shunday qilib, A.R.Luriyaga ko‘ra, nutqiy ifoda o‘zining motivlari, chiqish vazifalari ega bo‘lgan muayyan faoliyat turidir.

### A. A. Leontev modeli

A.A. Leontev modelining mohiyatini to‘liq tushunish uchun uning fiziologik aktivlik nazariyasiga e’tibor qaratgani xususida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. A.A. Leontev aktivlik nazariyasini (individ faoliyatining) reaktivlik nazariyasiga (S-R) qarama-qarshi qo‘ydi.

Hayvonlar va insonlarning faoliyati muayyan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Masalan, trolleybus bekatiga borish maqsadini (N.A. Bernshteynning harakat fiziologiyasidan) olaylik. Mazkur maqsadga erishish uchun oldindan dastur tuziladi. Dastur bir nechta tadbirlarni o‘z ichiga oladi (uydan chiqish, zinadan tushish, yo‘lakdan chiqish, hovlidan o‘tish, ko‘chaga chiqish va h.k.). Inson ko‘zlagan maqsadiga erishishi uchun har doim eng maqbul yo‘lni tanlaydi. Bunda insonga tabiatni o‘zi ham ko‘maklashadi. Chunonchi, inson uchun tabiatan orqaga emas, balki oldinga (o‘z tanasining yo‘nalishiga ko‘ra) harakatlanish qulay. Trolleybus bekatiga borguncha “oyoqni yerdan uzish”, “uni oldinga tashlash”, “tana og‘irligini oldinga tashlash” va h.k vazifalarni bajarish

<sup>9</sup> Белянин В. П. Психолингвистика. –М., 2004. –С. 82-83.

kerak bo‘ladi. Lekin kattalar bu harakatlarni bajarayotganda, ya’ni yurib ketayotganda nima qilayotganliklari haqida o‘ylashmaydi. Chunki ularda bunday harakatlar avtomatlashgan bo‘ladi. Biroq har doim ham bunday bo‘lmaydi. Binobarin, endigina tetapoya qilayotgan bola oyoqni qanday qilib yerdan uzish, oyoqni qaerga qo‘yish, qanday qilib muvozanatni saqlash, yiqilib tushmaslik kabi vazifalarni hal qilishiga to‘g‘ri keladi. Yoki kattalarda ham ayni holat kuzatilishi mumkin. Masalan, u sirpanchiq, muzli yo‘lda ketayotganida odatdagidek tezroq trolleybus bekatiga yetib olishni emas, balki muzda yiqilmasdan muvozanatni saqlab qadam bosish haqida o‘laydi.

Faoliyatning yuqori va quyi bosqichi farq qiladi. Keltirilgan misolda quyi bosqichda nimadir “to‘xtab qoldi”, bunday holatda kishi vaqtinchalik yuqori bosqichni nazorat qila olmaydi va u quyi bosqichga tushadi. Ayni holat nutqiy muomalada ham kuzatiladi. Nutqiy faoliyat bir-biri bilan uzviy bog‘langan jarayonlar natijasidir. Har bir bosqichning o‘z vazifasini to‘la-to‘kis mustaqil bajarishi to‘g‘ri matnlarning yaratilishi bilan yakunlanadi. Kishi o‘z ona tilini yaxshi bilganda, uning nutqiy muomalasining yuqori bosqichi – bu strategik, aloqaviy nutq bosqichi bo‘ladi. U nutq tuzilishini to‘la nazorat qila oladi. Bunda nutqdagi so‘zlar o‘z-o‘zidan quyilib keladi. Aytaylik, u tutilib qoldi, biron so‘zni esidan chiqarib qo‘ydi yoki mos bir so‘z izlayapti. Bunday holatda semantik doirada so‘z tanlash yuqori bosqich hisoblanadi. Agar so‘zlovchi biron so‘zning talaffuzida urg‘uning qaysi bo‘g‘in berishga ikkilansa, u holda, nazorat quyi bosqichga tushadi.

**Ona tilini o‘zlashtirshda mavjud muommolar.** Demak, yuqori bosqich tushunchasi o‘zgaruvchan, shartli bo‘ladi. Har qanday quyi bosqich yuqori bo‘lishi mumkin. Nutqning bunday qarama-qarshi xususiyatidan til egasining so‘zga qarama-qarshi munosabatini ko‘rsatish mumkin. So‘z bir tomondan, biron yoyiq matnning yaratilishidagi qism, unsur hisoblanadi. Boshqa tomondan, kishi ongli nazorat mexanizmini o‘zgartirganda, u so‘zdan foydalanish amalidan so‘zni

anglash amaliga o'tadi. Tabiiyki, qayd qilingan qarama-qarshilik nafaqat so'zga, balki sintaktik konstruksiyalar, morfemalar, fonemalar, intonatsiyalar va h.k.ga ham xosdir<sup>10</sup>.

1960-yilning oxirlariga kelib, A.A. Leontev T.V. Ryabova (Axutina) bilan birgalikda ifoda yaratilishining mufassal modelini ishlab chiqdi. Mazkur modelning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. L.S. Vigotskiyning g'oyasiga tayangan holda tahlil elementlar asosida emas, balki birliklar asosida amalga oshiriladi. Tadqiqotning asosiy predmeti sifatida matnning segmenti emas, faoliyatning barcha xususiyatlariga ega bo'lgan ayrim oddiy harakatlar, oddiy "hujayra" olinadi. Masalan, ifodani bunday "hujayra" hisoblash mumkin. Shuning uchun ham model ifoda modeli sifatida tuziladi.

2. N.A Bernshteyn tomonidan ajratilgan faoliyatning barcha xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bunda birinchidan, ifoda tuzilishiga ko'ra faoliyatning uch bosqichi nazarda tutiladi: dasturni rejalashtirish; dasturni amalga oshirish; qiyoslash (nazorat, kerak bo'lganda tahrir qilish). Ikkinchidan, harakatning muayyan maqsadga qaratilganligi va motivlanganligi: inson faqat biron narsaga munosabat bildirish uchun gapirmaydi, u o'z faoliyatini, xususan, nutqiy faoliyatini muayyan maqsadni ko'zlab amalga oshiradi. Uchinchidan, fiziologik tuzilishning darajali g'oyalari bilan bog'liq bo'lgan harakatning psixofiziologik shartlangan pog'onali tuzilishi.

3. Evristik. Chunonchi, psixolingvistika insonning nutqiy faoliyatini uning boshqa aqliy va ruhiy qobiliyatları bilan bir qatorda o'rganadi. Ifoda yaratilishi modeli mohiyatan evristik faoliyatdir. Ya'ni inson u yoki bu strategiyadan foydalanishi, o'ziga ma'qul bo'lgan yo'lni tanlashi mumkin.

4. Kelajakni oldindan aytish (prognoz qilish) ehtimolligi mexanizmini hisobga olish. Inson o'zi bo'lishni xohlagan kelajakni oldindan aytadi. Bu har

<sup>10</sup> Сахарный Л.В. Введение в психолингвистику. -Л., Изд. ЛГУ, 1989. -С. 41-43.

qanday faoliyatning, jumladan, nutqiy faoliyatning ham tamoyilidir. Oldindan aytish har doim ba'zi ehtimollarni taxmin qiladi. Agar kishi qandaydir matn yaratmoqchi bo'lsa, u o'zi aytmoqchi bo'lgan narsaning o'zi xohlaganday ifodalab berishiga 100% ishona olmaydi.

A.A. Leontev va T.V. Ryabovalarning modeli quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Ifodaning grammatik-cemantik tomonlarini dasturlash. Bu bosqichda birinchi navbatda ichki dastur tuziladi, shuningdek, mazkur dasturni ichki nutqdan farqlash lozim bo'ladi. Ichki dasturlash nutqiy faoliyatining eng botiniy mavhum bosqichini namoyon qiladi. Ichki dasturlashda muayyan aniq til bilan emas, balki nutqni bo'laklarga ajratishga, ifodalarni yaratishga qaratilgan qandaydir umuminsoniy qobiliyatlar bilan bog'liq elementlar mavjud bo'lishi mumkin. Ichki dasturlash bosqichining realligini nutqiy buzilish ma'lumotlari ham isbotlashi mumkin. Jumladan, dinamik afaziya holatlarida bemorlarda ichki dasturning yo'qligi bois ular xotiralaridagi so'z boyliklaridan kerakli so'zlarni topa olmaydilar, boshqa bir guruh bemorlar so'zlarni ajratib olsalar ham ularning morfologik shakllarini aniqlashda qiyinchiliklar sezadilar, yana bir guruh bemorlar sintaktik qurilmalar tanlashda ojizlik qiladilar va h.k.

Birinchidan, dastur strukturasining chiziqli xususiyatga egaligi taxmin qilinadi. Bu tabiiy bir hol, chunki insonning tashqi nutqi ham chiziqli xususiyatga ega. Ikkinchidan, dastur korrelyat (o'zaro bog'langan, munosabatdor bo'lgan ikki yoki undan ortiq til birliklaridan biri) so'zlarni emas, balki yirik korrelyatlar hisoblangan subekt, predikat va obekt (ya'ni kimdir nimagadir yo'nalgan nimadir qiladi)ni o'z ichiga oladi. Uchinchidan dasturning strukturasi so'zlarning ijtimoiy mustahkamlangan ma'nolari bilan emas, balki shaxsiy "mazmunlar" bilan bog'liq bo'ladi. To'rtinchidan, ichki dasturlash mohiyatan predikatsiya aktlarini, ya'ni nimaning nima bilandir bog'lanish amallarini namoyon etadi.

Demak, ichki dasturlash shunchaki bir turdag'i elementlarning ketma-ketligi bo'lmay, balki ularning bog'lanish tizimi, qator predikativ amallardir. Predikativ amallar *tun*, *sukunat*, *qahraton* singari so'zlar majmuyini *Tun*. *Sukunat*. *Qahraton*. kabi gaplar tizimidan ajratadi. Masalan, *tun* – oddiy so'z bo'lmasdan, balki tun bo'lganini tasdiqlashdir.

2. Ifodaning grammatik realizatsiyasi va so'z tanlash. Mazkur bosqichda so'zlovchi aniq til tomon jiddiy qadam tashlaydi, shuning uchun ham u tilni yaxshi, hech bo'limganda yetarli darajada bilishi lozim bo'ladi. Biroq ushbu bosqichda qat'iy majburiy amallar yo'q. Kishi nutq yaratish uchun oldin so'z tanlab oladi va unga mos morfologik shaklni aniqlaydi yoki bu amal aksincha ham bo'lishi mumkin. Bu kommunikatsiyaning xususiyatiga bog'liq.

3. Sintagmalarni motorli dasturlash. Bu bosqich fonetik, tovush dasturlarini tuzish, tovush tanlash bilan bog'liq bo'ladi. Ana shundan keyin "chiqish"ga motor komandasi beriladi. Ya'ni ifoda ovoz va nutq organlari ishtirokida talaffuz qilinadi.

Xullas, nutq yaratilishi bir qancha murakkab ruhiy va jismoniy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Demak, nutq – faoliyatdir. Har qanday faoliyat biron motiv bilan bog'liq. Inson o'z niyatini amalgaga oshirish yo'lida harakat qiladi. Har bir harakat o'z oldiga biror maqsadni qo'yadi: bir yoki bir necha maqsadning bajarilishi niyatning ushalishiga olib keladi. Biron maqsadni amalgaga oshirish o'z navbatida bir qancha tadbirlarni o'z ichiga oladi. Qisqasi, niyatning ushalishi birin-ketin ma'lum tartibda joylashgan bosqichlardagi faoliyatlar yig'indisi bilan bog'liq.

Faoliyatning ikkita yetakchi va yordamchi turlari farqlanadi. Yetakchi faoliyatning bajarilishi ong ishtirokida, yordamchi faoliyatning bajarilishi ong ishtirokisiz amalgaga oshiriladi. Nutqning paydo bo'lishining boshlang'ich nuqtasi ruhiy, yakuniy nuqtasi jismoniydir, chunki u nutq organlarining harakati natijasida sodir bo'ladi. Ana shu ikki nuqta orasidagi jarayon psixolingvistikani qiziqtiradigan masaladir.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan nutq yaratilishi nazariyalari va modellari bir-biriga juda yaqin bo‘lib, mohiyatan ular bir-birini to‘ldiradi. Ularni umumlashtirgan holda shunday ko‘rsatish mumkin: motiv←botiniy semantik bosqich→zohiriyligini semantik bosqich→botiniy sintaktik bosqich→zohiriyligini sintaktik bosqich←botiniy morfologik bosqich→zohiriyligini morfologik bosqich→botiniy fonologik bosqich va nihoyat fonetik bosqich.

Shunday qilib, nutq yaratilishi jarayoni so‘zlovchining muayyan qoidalar asosida o‘z fikrlarini aniq tilning nutqiy birliklariga uzatishi bilan yakunlanadi.

### ***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. Insonda lisoniy qobiliyatning shakllanishi masalasi qanday?
2. Bolaning tashqi ta’sirga javoblari qanday namoyon bo‘ladi?
3. Bola nutqining keying rivojlanish bosqichi haqida ayting.

### ***FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:***

1. Выготский Л.С. Мышление и речь // Собр. соч.: в 8 т. –М., 1982. Т.2. –С. 305.
2. Белянин В. П. Психолингвистика. –М., 2004. –С. 81.
2. Сахарный Л.В. Введение в психолингвистику. -Л., Изд. ЛГУ, 1989. –С. 41-43.
3. Dahan, D. Magnuson, J.S. (2006) Spoken Word Recognition. In Handbook of Psycholinguistics. Elsevier Inc. P. 249-284.
4. Douglas Brown, H. (2002). English Language Teaching in the “Post-Method” Era: Toward 7.Better Diagnosis, Treatment, and Assessment. In *Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. P. 9.

**3-MAVZU:**

## **TIL TA'LIMIGA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI**

**REJA:**

- 1. *Til o'zlashtirish va o'rganishning farqi***
- 2. *Grammatik struktuarni o'zlashtirishda tabiiy tartibning mavjudligi***
- 3. *Monitor gipotezasi***

**Tayanch iboralar:** Monitorni qo'llashda individual farqlilik. “Input” gipotezasi. “Input” gipotezasiga amaliy misollar. “Affektiv filtr” gipotezasi. Ikkinchi tilni o'zlashtirish jarayoniga formal yondashuvlar.

**Tilni o'zlashtirish va o'rganishning farqi.** Ikkinchi tilni o'rganish (SLA) tilni o'rganayotgan shaxslar va guruhlarni yosh bolalari kabi birinchi bo'lib o'rgangandan keyin o'rganishga va shu tilni o'rganish jarayoniga tegishli.

Qo'shimcha til ikkinchi til (L2) deb nomlanadi, garchi u aslida uchinchi, to'rtinchi yoki o'ninchi bo'lishi mumkin. U, shuningdek, o'rganish maqsadi yoki maqsadi bo'lган har qanday tilni bildiradigan maqsadli til (TL) deb ataladi. SLA doirasiga tabiiy muhitda bo'lib o'tadigan norasmiy L2 o'rganish, sinflarda bo'lib o'tadigan L2 rasmiy o'rganish va ushbu sharoit va sharoitlar aralashmasini o'z ichiga olgan L2 o'rganish kiradi. Masalan, “norasmiy o'rganish” Yaponiyadan kelgan bolani AQShga olib kelganda va ingliz tilida ona tilida so'zlashadigan bolalar bilan biron bir ixtisoslashtirilgan til bo'yicha darslar olmasdan yoki kattalar bilan suhbatlashayotganda ingliz tilini “olib ketish” paytida yuz beradi. Kanadadagi gvatemalalik muhojir ingliz tilini ona tilida so'zlashadiganlar yoki ikkinchi til sifatida ingliz tilida so'zlashadigan hamkasblar bilan o'zaro munosabat natijasida o'rganadi. “Rasmiy o'rganish” Angliyadagi o'rta maktab o'quvchisi

frantsuz tilida dars olganda, Rossiyada talaba arab tilida dars olganda yoki Kolumbiyada advokat ingliz tilida tungi dars o'tkazganda ro'y beradi. Rasmiy va norasmiy o'rganish kombinatsiyasi AQShlik talaba Taipei yoki Pekinda xitoy tili darslarini o'tayotganda, shuningdek, xitoyliklarni ijtimoiy aloqalar va kundalik turmush tajribasi uchun ishlatganda yoki efiopiya voyaga etgan immigranti Isroilda bo'lganida yuz beradi.

Ibroni tilini maxsus darslarda qatnashishni va hamkasblar va boshqa aholi bilan ibroniy tilida gaplashishni o'rganadi.

Ikkinci tilni o'zlashtirish jarayonini tushunish uchun biz uchta asosiy savolga javob berishga intilamiz: (1) L2 o'rganayotgan kishi nimani aniq biladi? (2) O'quvchi bu bilimlarni qanday egallaydi? 3) Nega ba'zi o'quvchilar boshqalarga qaraganda muvaffaqiyat qozonishadi?

Bu savollarga oddiy javoblar yo'q - aslida barcha ikkinchi til tadqiqotchilari to'liq kelishib oladigan javoblar yo'q.

Qisman, chunki SLA tabiatda juda murakkab va qisman SLA-ni o'rganayotgan olimlar nazariy va tadqiqot usullarida bir-biridan keskin farq qiladigan ilmiy fanlardan kelib chiqqanligi sababli.

O'tgan yarim asr davomida rivojlangan SLA hodisalarini o'rganishga ko'p yo'naliqli yondashuv muhim tushunchalarni berdi, ammo ko'plab jozibali sirlar saqlanib qolmoqda. Har kuni yangi topilmalar paydo bo'lib, ushbu mavzuni o'rganish uchun qiziqarli davrni yaratmoqda. Javoblarni izlashni davom ettirish nafaqat SLA-ga o'z ta'sirini ko'rsatibgina qolmay, balki tegishli sohalarni yoritib beradi. Bundan tashqari, ushbu savollarga javoblarni o'rganish qo'shimcha tillarni o'rganadigan yoki o'qitadigan har bir kishi uchun amaliy ahamiyatga ega.

SLA asosan tilshunoslik va psixologiya (va ularning amaliy tilshunoslik, psixolingvistika, sotsiologingvistik va ijtimoiy psixologiya sohalari) doirasida, nima, qanday va nima uchun berilgan savollarga javob berishga qaratilgan

harakatlar natijasida paydo bo'ldi. Ushbu sohalarning har biridan kelgan tadqiqotchilar ta'kidlagan narsalarda tegishli farqlar mavjud:

- Tilshunoslar o'rganilayotgan tillardagi farqlar va o'xshashliklarning xususiyatlarini va o'rganishning turli bosqichlarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasi (asosiy bilimlar) va lingvistik ko'rsatkichlarini (haqiqiy ishlab chiqarish) ta'kidlashadi.
- Psixologlar va psixolingvistlar o'zlashtirishda ishtirok etadigan aqliy yoki kognitiv jarayonlarga va miyalarda til (lar) ning vakili bo'lishiga urg'u berishadi.
- Sotsiolingvistlar o'quvchilarning lingvistik ko'rsatkichlari o'zgaruvchanligini ta'kidlaydilar va o'qish doirasini kommunikativ kompetentsiyaga kengaytirmoqdalar(qo'shimcha ravishda tildan foydalanish yoki pragmatik kompetensiyani hisobga oladigan asosiy bilim).
- Ijtimoiy psixologlar shaxsni aniqlash va ijtimoiy motivatsiya, shuningdek ta'limning o'zaro va katta ijtimoiy kontekstlari kabi guruh bilan bog'liq hodisalarni ta'kidlashadi.

SLA-ga ixtisoslashgan amaliy tilshunoslar ushbu nuqtai nazardan birini yoki bir nechtasini qabul qilishi mumkin, ammo ular ko'pincha ikkinchi tillarni o'qitish uchun nazariya va tadqiqotlarning ahamiyati bilan ham shug'ullanishadi. Har bir intizom va kafedra ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish uchun turli xil usullardan foydalanadi

SLA bo'yicha tadqiqotlar turli xil nazariy asoslarni qo'llaydi va tadqiqotlar natijalari va xulosalarini har xil yo'llar bilan izohlaydi. Buning ajablanarli joyi yo'q, chunki turli xil intizomiy nuqtai nazardan kelib chiqadigan tushunchalar ba'zan filni tasvirlab bergen uchta ko'r odamning taniqli osiyo masaliga o'xshab qarama-qarshi bo'lib tuyuladi: biri, dumini his qilib, bu xuddi u kabi ekanligini aytadi. arqon; boshqasi, yon tomonni his qilib, tekis va kauchuk ekanligini aytadi; uchinchisi, magistralni his qilib, uni shunday tasvirlaydi. Uzun kauchuk shlangga

o‘xshash. Har bir idrok individual ravishda to‘g‘ri bo‘lsa-da, ular umumiy hayvon to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lmaydilar, chunki yaxlit va yaxlit nuqtai nazar yo‘q. Oxir oqibat, SLAning qoniqarli hisobi ushbu bir nechta istiqbollarni birlashtirishi kerak; ushbu kitob bu yo‘nalishdagi qadamdir. Fil masalidagi kabi, bu erda uch xil nuqtai nazar mavjud: lingvistik, psixologik va ijtimoiy. Men ulardan bittasi “to‘g‘ri” yoki ustunroq deb taxmin qilmayman, ammo barchasi SLA ning murakkab hodisalarini to‘liqroq tushunish uchun zarurdir.

**Grammatik struktuarni o‘zlashtirishda tabiiy tartibning mavjudligi.**  
 Ko‘p tilli so‘zlar ikki yoki undan ko‘p tillardan foydalanish qobiliyatini anglatadi. (Ba’zi tilshunoslar va psixologlar ikki tilli va ikkitadan ko‘p tillarni bilish qobiliyati uchun ikki tilli tildan foydalanadilar, ammo biz bu farqni aniqlamaymiz.) Monolingualizm faqat bitta tildan foydalanish qobiliyatini anglatadi. Hech kim qancha tilli bo‘lganini aniq aytolmaydi, ammo o‘rtacha hisob bu dunyo aholisining kamida yarmi ushbu toifaga kirganligini anglatadi. Shu sababli ko‘p tilli bo‘lish kamdan-kam uchraydigan hodisa emas, balki dunyoning aksariyat mintaqalarida odatiy va odatiy holdir. Fransua Grosyanning so‘zlariga ko‘ra, bu bizning tilimizdan foydalanish bo‘yicha har qanday yozuvlar mavjud bo‘lgan paytgacha bo‘lgan: ikki tilli til dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida, jamiyatning barcha sinflarida va barcha yosh guruqlarida mavjud. Aslida, chinakam monolit jamiyatni topish juda qiyin. Dunyo miqyosida ikki tilli tafakkur nafaqat mavjud emas, ammo u boshidan beri mavjud bo‘lgan hodisadir.

Hech qanday til guruhi boshqa til guruhlaridan ajratilgan holda mavjud bo‘limganligi ehtimol haqiqatdir, va tillar tarixi ikkala tilli munosabatlarning ba’zi shakllariga olib keladigan tillararo aloqalar misollari bilan to‘ldirilgan.

Hozirgi vaziyat haqida hisobot berar ekan, Richard Tucker dunyoda ko‘p tilli yoki ko‘p tilli shaxslar yakka holatga qaraganda ko‘proq ekanligi haqida xulosa qiladi. Bundan tashqari, butun dunyoda ikkinchi darajali yoki keyinchalik o‘rganilgan til bo‘yicha, rasmiy ta’limning kamida bir qismi uchun tahsil olgan va o‘qishni davom ettirayotgan bolalar soni ko‘p, bu yerda faqat birinchi til orqali

o‘qitiladigan bolalar bor. Ko‘p tilli populyatsiyalarning soni va keng tarqalishini hisobga olgan holda, til o‘rganishga berilgan ilmiy e’tiborning katta qismi faqat monolit sharoitlarga va birinchi tilni o‘zlashtirishga bog‘liqligi ajablantiradi. L1 va L2 ni olish o‘rtasida qiziqarli o‘xshashliklar mavjud bo‘lsa-da, jarayonlar tenglashtirilishi mumkin emas va ko‘p tilli bo‘lish faqat bitta tildan tashqari monolingualizm kabi bir xil bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi deb taxmin qilish mumkin emas. Bu fikrni Vivian Kuk juda ko‘p diqqat bilan ta’kidlagan, u ko‘p tilli kompetentsiya kontseptsiyasini (uning atamasi "ko‘p kompetentsiya") "ikki yoki undan ko‘p grammatikaga ega bo‘lgan ongning murakkab holati" ni (1991: 112) nazarda tutgan. faqat bitta tilni bilishni nazarda tutuvchi yakkama-yakka kompetentsiya (yoki "monokompeten") bilan ajralib turadi L2 foydalanuvchilar L1 bilimlaridagi yaxlitliklardan farq qiladi; L2-ning ilg‘or foydalanuvchilar L2 bilimlaridagi monolituallardan farq qiladi; L2-foydalanuvchilar esa har xil metalshunoslikka ega. monolinguallardan; L2 foydalanuvchilar turli xil kognitiv jarayonlarga ega, bu nozik farqlar doimiy ravishda, ko‘p kompetentsiyaga ega odamlar nafaqat ikki tilli fikrga teng kelishini, balki noyob kombinatsiyani anglatadi.(Kuk 1992: 557).

**Monitor gipotezasi.**Ko‘p tilli bo‘lish har bir mamlakatda yuzaga kelgan bo‘lsa-da, turli xil ijtimoiy sabablarga ko‘ra ko‘p tillardan foydalanishni taqsimlash unchalik notekis. Ba’zi mamlakatlarda, masalan Islandiyada, juda kam odam doimiy ravishda milliy tildan boshqa tilda gaplashadi, boshqa mamlakatlarda, masalan G‘arbiy Afrikada, milliy tilda so‘zlashuvchilarining 100 foizga yaqini boshqa tilda gaplashadi. Inglizcha L1 ma’ruzachilar ko‘pincha ular sayohat qilishlari mumkin bo‘lgan dunyoning istalgan nuqtasida ingliz tilida "til topishib" olishlari mumkinturizm, biznes yoki diplomatik maqsadlarda va shu sababli qisman boshqa tillarda bemalol gaplashishi mumkin. Ko‘p tilli muhitda ulg‘ayganlar ikki yoki undan ko‘p tillardan tabiiy ravishda foydalanish jarayonida ko‘p tilli malakaga ega bo‘ladilar, bolalikni atrofdagi odamlar bilan o‘tkazadi va

buni odatiy hol deb bilishga moyildir. Katta yoshda ikkinchi tillarni qo'shish ko'pincha katta kuch talab etadi va shuning uchun motivatsiyani talab qiladi. Ushbu motivatsiya turli xil sharoitlarda yuzaga kelishi mumkin, jumladan:

- Bir davlatning boshqa tilda so'zlashuvchilar tomonidan bosib olinishi yoki bosib olinishi;
- Iqtisodiy yoki boshqa o'ziga xos sohalarda boshqa tillarda so'zlashuvchilar bilan aloqa qilish zarurati yoki istagi;
- 1 yoshdan kattaroq tildan foydalanish kerak bo'lgan mamlakatga immigratsiya;
- Boshqa tildan foydalanishni o'z ichiga olgan diniy e'tiqod va marosimlarni qabul qilish;
- Kirish imkoniyati boshqa tilni bilishni talab etadigan ta'lim tajribasiga ehtiyoj yoki istak;
- Boshqa tilni bilish orqali kasb yoki ijtimoiy taraqqiyotga intilish;
- Boshqa madaniyatdagi xalqlar haqida ko'proq bilishga qiziqish va ularning texnologiyalari yoki adabiyotlaridan foydalanish. (Kristal 1997 b)

L1 va L2 o'rganishni qisqacha taqqoslash uch bosqichga bo'lingan. Birinchisi, ko'plab tilshunoslar va psixologlarning fikriga ko'ra, L1 yoki L2 olishning boshida o'quvchilar boshidagi til tuzilishi va printsiplari to'g'risidagi asosiy bilimlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich, oraliq holatlar bazaning barcha bosqichlarini qamrab oladi.

Bunga men "bola grammatikasi" deb nomlagan narsalarda sodir bo'ladigan o'zgarishlar va o'rganish tili sifatida tanilgan L2 rivojlanish ketma-ketligi kiradi.

Ushbu bosqichda biz L1 va L2 rivojlanish jarayonlarini taqqoslaymiz va keyin zarur bo'lgan yoki til o'rganishni engillashtiradigan shartlarni taqqoslaymiz. Uchinchi bosqich - bu L1 va L2 o'rganish natijasi bo'lgan yakuniy holat. Ushbu uch bosqichning soddalashtirilgan tasviri 2.2-bandga kiritilgan va L1 va L2

o‘rganish o‘rtasidagi qarama-qarshilikning asosiy jihatlari ro‘yxati bilan birga ko‘rib chiqamiz.

Boshlang‘ich holat. L1 uchun bolalar ongidagi boshlang‘ich holat til o‘rganish qobiliyatining tug‘ma qobiliyatiga aylangan bo‘lsa ham, katta yoshdagi o‘quvchilarda L2 ni olish uchun bunday tabiiy qobiliyat boshlang‘ich holatning bir qismi bo‘ladimi yoki yo‘qmi (shu bilan 2.2). Ba’zi tilshunoslar va psixologlar, bolalarning tug‘ilishidan boshlab til o‘rganish uchun olib borgan genetik moyilligi hayot davomida ular bilan qoladi.

L1 va L2 o‘rganishning yakuniy natijalari boshqa omillarga bog‘liq. Boshqalari, bolalarning L1 uchun tug‘ma qobiliyatining ba’zi jihatlari keyingi tillarni o‘rganish uchun o‘z kuchida qoladi, deb hisoblaydilar, ammo bu tabiiy qobiliyatning ba’zi jihatlari yoshi o‘tgan sari yo‘qoladi. Boshqalar esa, til o‘rganish uchun tug‘ma qobiliyat bolaligidanoq qolmaydi va keyingi tillar katta yoshdagi o‘quvchilar boshqa domenlarni qanday egallashlariga qarindosh bo‘lgan vositalar yordamida o‘rganiladi, deb hisoblashadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri tilni o‘rganish uchun aqliy qobiliyatni kuzata olmasligimiz sababli, turli xil e’tiqodlar asosan nazariy asoslarga asoslangan taxminlar va bilvosita usullar bilan sinab ko‘rish, turli intizom nuqtai nazaridan kelib chiqqan shaxslar rozi bo‘lmasliklari mumkin. Masalan, ko‘pgina tilshunoslar o‘quvchilarning L2 so‘zlarini (masalan, cookie-fayllar yuqorida aytib o‘tilgan misollarni keltirishi mumkin emas) muhokama qilish qobiliyatiga, bolalarning tug‘ma qobiliyatiga bog‘liq bo‘lgan L1 kompetensiyasining aspektlaridan biri deb hisoblashadi. Ijtimoiy nuqtai nazarga ega bo‘lganlarning aksariyati (2) grammatikallikning ishonchli dalillarini rad etishadi, chunki ular sun’iy vazifalar natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, ular L2 talqini va ishlatilishining haqiqiy holatlarini o‘z ichiga olmaydi. O‘z navbatida, psixologik nuqtai nazarga ega bo‘lganlarning ko‘plari ijtimoiy asosli dalillarni (masalan, tabiiy tillarni ishlab chiqarish) rad etishadi, chunki ekspluatatsion tadqiqotlar uchun mavjud bo‘lgan

ijtimoiy foydalanish bilan birga ko‘plab o‘zgaruvchilar nazorat qilib bo‘lmaydi. Shunday qilib, SLA-da tillarni o‘rganish uchun tug‘ma imkoniyatlarning qay darajada mavjudligi haqidagi savol juda qiziq va muhim bo‘lsa-da, keyingi yillar davomida hal qilinmay qolishi mumkin. Shu bilan birga, L2 ni olish L1-ni olishdan so‘ng, L2 o‘rganish uchun boshlang‘ich holatning muhim tarkibiy qismi L1-ni oldindan bilish bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida to‘liq kelishuv mavjud. Bu tilning (umuman) qanday ishlashini bilish, shuningdek, tilning o‘ziga xos xususiyatlarining son-sanoqsizligini talab qiladi.

### ***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. Insonda lisoniy qobiliyatning shakllanishi masalasi qanday?
2. Ikkinci tilni o‘zlashtirish bosqichlari qanday?
3. Ikkinci tilni o‘zlashtirishda mavjud gipotezalar haqida ayting.

### ***ADABIYOTLAR RO‘YXATI:***

1. Выготский Л.С. Мышление и речь // Собр. соч.: в 8 т. –М., 1982. Т.2. –С. 305.
2. Белянин В. П. Психолингвистика. –М., 2004. –С. 81.
3. Сахарный Л.В. Введение в психолингвистику. -Л., Изд. ЛГУ, 1989. –С. 41-43.
4. Dahan, D. Magnuson, J.S. (2006) Spoken Word Recognition. In Handbook of Psycholinguistics. Elsevier Inc. P. 249-284.
5. Douglas Brown, H. (2002). English Language Teaching in the “Post-Method” Era: Toward 7.Better Diagnosis, Treatment, and Assessment. In *Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. P. 9.

## **IV.AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI**



## 1-AMALIY MASHG'ULOT:

### NUTQNING YARATILISHI VA QABUL QILINISHI BO'YICHA

### PSIXOLINGVISTIK MODELLARI

#### REJA:

- 1. Nutq haqida umumiy tushuncha*
- 2. Nutq yaratilishining bosqichlari.*
- 3. Kodlash va dekodlash jarayoni*

**Ishdan maqsad:** Nutq yaratilishi va qabul qilinishi masalasini o'rghanish. Nutq yaratilishi bo'yicha ham, qabul qilinishi jarayonlarining qanday bosqichlardan iboratligi va u bosqichlarda qanday birliklar bilan ish ko'rilib qaratish. Kodlash va dekodlash jarayonini o'rghanish. Dell modeli, Levelt modeli, Ellis va Yang modeli haqida tushunchaga ega bo'lish.

**Tayanch iboralar:** *nutq yaratilishi, nutqning qabul qilinishi, kodlash va dekodlash, Dell modeli, Levelt modeli, Ellis modeli, Yang modeli.*

**Masalaning qo'yilishi:** Nutqiy ifodaning hosil bo'lishi psixolinguistika shakllanayotgan ilk davrdayoq asosiy masalalardan biri sifatida ko'rib chiqilgan yedi [Osgud, 1954]. Rus psixolinguistikasida shu sohada amalga oshirilgan isjni ko'rib chiqamiz. 60-yillar so'nggida A.A.Leontev va T.V.Ryabova(Axutina) tomonidan "Gapning tug'ilish modeli" ("Модел порождения речевого высказывания") ishlab chiqildi [Leontev, 1968]. L.V.Saxarniy model quyidagi prinsiplar asosida ishlaganligini qayd etadi [Saxarniy, 1989,44-48]:

1. Tahlil elementlar emas, balki birliklar bo'yicha. Tadqiqotning bosh predmeti sifatida matn segmenti emas, balki faoliyatning barcha birliklariga ega bo'lgan elementar katakcha olinadi. Bunday katakcha sifatida gap (высказывание) olinishi mumkin.

2. N.A.Bernshtyen tomonidan ajratilgan barcha asosiy belgilarni hisobga olish zaruriyati. Bunda 1)gap tuzish jarayonida foliyatning uch afzalligi: dasturni rejalarshirish fazasi, dasturni amalga oshirish fazasi va taqqoslash (nazorat, zaru bo‘lsa tahrir) fazasi; 2)faoliyatning maqsadga qaratilganligi va dalillanganligi; 3)faoliyat shartliligining ierarxik organizatsiyasi nazarda tutiladi.

3. Evristika. Gapning tug‘ilish mexanizmi Miller-Xomskiy modelida keltirilgandagi qat’iy algoritmik bo‘lishi mumkin emas. Inson gap tuzishda o‘z maqsadiga muvofiq yo‘lni tanlaydi.

4. Kelajakni bashorat qilish ehtimolligining mexanizmini hisobga olish. Inson o‘zi borishni istagan kelajakni bashorat qiladi. Bu insonga xos faoliyatning, shuningdek, nutqiy faoliyatning asosiy prinsipidir.

### **Tadqiqot quyidagi bloklardan tashkil topadi:**

1. Gapni grammatik – semantik tarafdan dasturlash. Bu yerda, avvalo, ichki dastur tuziladi. Ichki dastur nutqiy faoliyatning ancha chuqur va mavhum darajasini namoyon yetadi. Ichki dasturlashda aniq til bilan emas, qandaydir umuminsoniy nutqiy qobiliyat bilan bog‘liq bo‘lgan elementlar bo‘lishi mumkin. Ichki dasturlash mavjud yekanligini nutq patalogiyasidan olingan ma’lumotlar bilan isbotlash mumkin. Masalan: dinamik afaziyalarning bir ko‘rinishida bemor alohida so‘zlarni biladi, ammo ichki dasturlashning yo‘qligi tufayli u so‘zlarni bir-biriga bog‘lab gap yoki birikma tuza olmaydi. Mualliflar ichki dasturlash xususida quyidagi farazlarni ilgari suradilar:

Birinchidan, dastur chiziqli xarakterga ega, bu tabiiy, chunki bizning tashqi nutqimiz ham shundaydir. Ikkinchidan, ichki dasturlash gapning o‘ziga xos komponentlari (subyekt, predikat, obyekt kabi yirikroq va umumiyoq sath birliklari) korrelyatlarini o‘z ichiga oladi. Uchinchidan, dasturlash strukturasi so‘zning ijtimoiy ma’nosи bilan emas, “shaxsiy ma’nolar” bilan bog‘liq. To‘rtinchidan, ichki dasturlash mohiyatan o‘zida predikatsiya aktini, ya’ni biror narsaning nima bilandir bog‘lanishini namoyon etadi. Shunday qilib, ichki

dasturlash bir turdag'i elementlarning ketma-ketligi emas, ularning bog'lanishi operatsiyalarning qatoridir.

2. Gapning grammatik realizatsiyasi va so'z tanlash. Bu bosqichda so'zlovchi mavjud aniq til tomon jiddiy qadam tashlaydi. Shuning uchun unga bu yerda yetarli til bilimi kerak bo'ladi.

So'z tanlash mexanizmi assotsiativ tajribalar tahlili natijasida ko'rish mumkinki (masalan, shizofreniya bilan og'rigan bemorlarda) juda murakkab. A.A.Leontev so'z izlashning uch xil yo'lini belgilaydi: 1)so'zni semantik jihatdan assotsiativ izlash (bunda masalan, sinonim so'zlar qatiridan izlanadi); 2)so'zni tovush jihatdan izlash (masalan, bu holatda so'zlovchi "nima edi-ya, "sh"dan boshlanardi" deyishi mumkin); 3)so'zning subyektiv yehtimollik xarakteristikasi jihatdan izlash. Bunda A.A.Leontev insonda so'zning subyektiv chastotalari mavjudligini ko'rsatuvchi tadqiqotlarga tayanadi (Р.М.Фрумкина, А.П.Василивич, прогноз речевой деятельности. М, 1974).

Gapning tug'ilish mexanizmi gap yelementlari orasida qandaydir munosabatlarni mustahkamlaydi. Bu mexanizm insonning operativ xotirasi imkoniyatlari bilan bog'liq, chunki inson bir vaqtda ma'lum chegaralangan birliklar soni bilan ish ko'ra olishi mumkin.

Gapning grammatik realizatsiyasida va so'z tanlash blokida jarayonlarning qat'iy ketma-ketligi yo'q. Inson nutqni avval so'zlarni tanlab, keyin ularni gapga aylantirib tuzishi mumkin yoki aksincha, avval gapning grammatik jihatini tuzib, keyin o'rinlarini so'zlar bilan to'ldirish mumkin. Bu usullarning qay birini qo'llash muloqotning xususiyatlaridan kelib chiqadi.

3. Sintagmalarni motorli dasturlash. U tovush tanlash, fonetik va tovush jihatdan dasturlashning tashkil etilishi bilan bog'liq. Shundan so'ng gap talaffuz qilishga tayyor bo'ladi.

Taklif etilgan model mualliflarning o'zлари aytishicha, modellarning butun bir sinfini o'zida aks yettiradi, ya'ni o'zigacha mavjud bo'lgan modellarni inkor

yetmaydi, balki ularni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Nutqiy ifodaning tug‘ilish masalasi psixolingvistikaning yetakchi muammolaridan biri sifatida ancha keng o‘rganilgan.

Nutqning qabul qilinishi masalasi ham psixolingvistika fan sifatida shakllangan ilk davrda asosiy muammolardan biri hisoblanib ko‘rib chiqilgan. Bu jarayon ham nutqiy ifodaning tug‘ilish masalasi kani darajalarga bo‘lib tadqiq yetiladi. Ch.Osgudda bu darajalar uchta: proekcion, integratsion, reprezentativ.

Rus psixologi B.A.Ardentev ham nutqning qabul qilinishi va tushunilishi uch o‘zaro bog‘liq bosqichda kechadi deb tushuntiradi. 1-bosqichda olingan ta’sir sintezlanadi. 2-bosqich tahviliy bosqich bo‘lib, unda qabul qilingan signal xotiradagi mavjud obraz bilan solishtiriladi. Bu bosqichda leksik, grammatik va fonetik bilimlarning bo‘lishi muhim ahamiyat kasb yetadi. 3-bosqichda nihoyalovchi sintez amalga oshadi, bunda qabul qilingan ifodaning butun matn konteksi bilan yoki butun situatsiya bilan munosabati tahlil qilinadi [Artemov, 1958, 110-111].

Bu sohadagi tadqiqotlarni umumlashtiruvchi va yangi yondashuvni o‘zida aks yettiruvchi ish sifatida Y.V.Krasikovning “Алгоритмы порождения речи” (Orjonikidze, 1990) asarini aytish mumkin. Shunga yaqinroq tadqiqot “Восприятие речи в распознающих моделях” (Lvov, 1971) kitobida sxema tarzida beriladi. I.A.Zimnaya bir qancha olimlar N.N.Lange, A.P.Zinchenko, Ch.Osgud, D.Fray, N.I.Jinkinlarning nutq qabul qilishiga oid tadqiqotlarni ko‘rib chiqib, ular quyidagicha umumlashtiriladi:

Barcha modellarda:

1. Qabul qilinuvchi signaling qayta tuzilishi: momenti belgilanadi.
2. Signalning xotiradagi mavjud abstrakt tasavvur bilan solishtirish momenti ajratiladi.
3. Xotiradagi bu obrazning nutqiy organlar va eshitish analizatorida mavjud bo‘lishi tashkil qilinadi.

4. Nutqni qabul qilish va ishlab chiqarish jarayonida ma'lum birliklar mavjudligi taxmin qilinadi.
5. Hal etish yoki qaror qabul qilish momenti belgilanadi.
6. Nutqiy signalni ishlab chiqish izchillik bilan olib borilishi taxmin qilinadi.
7. Kontekstual yoki situativ shartlilikning aprior gipotezasi ilgari suriladi, ya'ni so'zni qabul qilishda uning ma'nosi konteks yoki so'z borayotgan situatsiyaga bog'liq holda anglashiladi.

Nutqning qabul qilinish jarayonini tatbiq etish murakkab, chunki bu jarayonning qanday kechishini kuzatib bo'lmaydi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarni psixolinguistikaning yutug'i sifatida baholash mumkin.

#### **Ishni bajarish uchun namuna:**

#### *Ushbu amaliy mashg'ulot davomida quyidagilarni bajarish lozim:*

1. Tinglovchilarning nutq yaratilishi va qabul qilinishi masalasi haqidagi mulohazalari (munozara, suhbat).
2. Nutq yaratilishi bo'yicha ham, qabul qilinishi jarayonlarining qanday bosqichlardan iboratligini aniqlash.
3. Tinglovilarning kodlash va dekodlash jarayonlari haqidagi mulohazalari (munozara, suhbat).

### **TOPSHIRIQLAR MAZMUNI**

**1-mashq.** Berilgan matnda xatolarni aniqlang va uni nutq yaratilishi mexanizmi asosida tushuntiring.

Avvalambor har bir ishda yoki ilm olishda odamzod ba'zi bir qiyinchiliklarga, to'siqlarga duch kelishi muqarrar. Shu jumladan har qanday tilni o'rganayotganda ham bu to'siqlar mavjud bo'ladi. Bu to'siqlarni yengib o'tishda biz to'g'ri yo'lni tanlay bilishimiz kerak bo'ladi. Xatto ona tilimizni o'rganayotganda ham boshqa tillarga qaraganda ko'proq qiyinchilikka duch kelishimiz mumkin lekin kam emas.

Mening fikrimcha avval har qanday tilni o'rganayotganda avval grammatikani o'rganish kerak deb bilaman. Chunki grammatikani bilmay turib og'zaki nutqda va yozishda bexato harakat qilish mumkin emas. Inson nima deyotganini va gaplari nimalardan iborat ekanligini bilmasa keyinchalik muammolarga duch keladi. Avval grammatikani o'rgansa bilimi samarali va eng qadrli vaqtini tejagan bo'ladi. Lekin faqat grammatikaga e'tibor bermasdan shu bilan birga og'zaki nutq, yozish, yaxshi tushunishga bir xilda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **TOPSHIRIQ YECHIMI:**

*Ikkita gapda gapning boshi bilan oxiri nomuvofiq.* Mening fikrimcha, avval har qanday tilni o'rganayotganda avval grammatikani o'rganish kerak deb bilaman. Gap "mening fikrimcha" deb boshlanyapti va oxirida ham "deb bilaman" jumlesi ishlataliyapti. Bu gapni strukturalashtirish bosqichida xatoga yo'l qo'yilganini bildiradi.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Nutq yaratilishi qanday jarayon?
2. Nutqning qabul qilinishi masalasi qanday?
3. Kodlash va dekodlash jarayoni haqida fikrlaringizni bildiring.
4. Dell modeli, Levelet modeli, Ellis va Yang modellarining haqida ayting.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Richards, J. (2002) Theories of Teaching in Lanugage Teaching. // *Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. Pp. 19-26.

2. Richards, J. (2002) Theories of Teaching in Lanugage Teaching. In Methodology in Language Teaching. Cambridge University Press. P. 20
3. Rustamova Sh. 12-13 yoshli bolalar nutqining sintaktik tahlili (ixtisoslashgan va oddiy maktab o‘quvchilari misolida).// *Global ta’lim va milliy metodika masalalari*. Ilmiy-anjuman materiallari. Toshkent, 2020. B. 381.
4. Swan, M. (2000) Seven bad reasons for teaching grammar and two good ones. // *Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. Pp.148-152.
5. Taylor E. (2002). Research in your own classroom. In Methodology in Language Teaching. Cambridge University Press. P.397-404
6. Zahorik, J.A. (1986). Acquiring teaching skills. Journal of Teacher Education (March-April), 21-25.

## 2- AMALIY MASHG'ULOT:

### MATNNING TUSHUNILISHIGA TA'SIR ETUVCHI LINGVISTIK OMILLAR

#### REJA:

- 1. Matn haqida umumiy tushuncha.*
- 2. Matnning shakl va mazmun jihatdan bog'liqligi.*
- 3. Lingvistik omillar sharhi.*

**Ishdan maqsad:** Matnning tushunilish jarayoni bir tomondan uning shakliga, ikkinchi tomondan mazmuniga bog'liq ekanligini o'rganish. Matnning na shakli, na mazmuniga bog'liq bo'lgan omillar mavjudligi haqida ma'lumotga ega bo'lish. O'quvchining psixologik holati, umumiy hayotiy tajribasi, uning ongidagi stereotiplar, funksional savodxonlik darajasi kabi omillarni o'rganish.

**Tayanch iboralar:** Matnning tushunilish jarayoni, shakl, mazmun, lingvistik omillar, ekstralinguistik omillar, o'quvchining psixologik holati, umumiy hayotiy tajribasi, uning ongidagi stereotiplar, funksional savodxonlik darajasi.

**Masalaning qo'yilishi:** Nutq tovushi retseptorlarga ta'sir etar ekan, inson o'z lisoniy tajribasiga asoslangan holda ularni tushunishga harakat qiladi. Inson notanish tilga oid nutqni eshitganda ham undagi tanishday ko'ringan so'zlarga, fonemalarga, juda bo'lmaganda, ohangga tayanib, uning mazmuni haqida xulosa chiqarishga urinadi. Tovushlarning mexanik qabuli doimo uning mazmuni haqida xulosa chiqarish (tushunish) bilan parallel kechadi. A.A.Leontev matnning qabul qilinishida "matnning mazmuniy tarkibi bosqichma-bosqich sintez qilinar ekan, bu sintez nutqiy zanjirning perceptiv tahlili hamda bunga parallel ravishda kechuvchi mazmuniy tahlil asosida amalga oshadi", – deydi. V.P.Belyanin: "Qabul qilish ikki darajada amalga oshadi-qabul qilishning o'zi va tushunish", – deb yozadi. G'arbiy Yevropa, xususan, niderlandiyalik psixolinguistlar J.Van Berkum, S.Braun,

P.Xagurtlar tushunishga quyidagicha ta'rif beradilar: “Og‘zaki nutqni tushunish bu tasavvurlar kompleksi va jarayon tezligi o‘rtasidagi muvozanatlashtiruvchi aktdir. Komplekslilik lisoniy va nolisoniy bilimlarning turli manbalari va diskurs kontekstini o‘z ichiga oladi. Tezlik esa nutq sur’atidan kelib chiqadi. Bilimning ikkala manbasi va nutq sur’ati eshituvchi uchun qo‘zg‘atuvchi signal vazifasini o‘taydi. Har bir nutqiy oqimdagи fonologik, semantik, sintaktik ma’lumot oldingi leksik, propozitsional va diskurs informatsiya bilan assotsiatsiyalanadi”.

“Matnni qabul qilishning mohiyati resipientda matnning mazmuniy obrazini (boshqacha aytganda, matn proeksiyasini – I.A.) hosil qilishdir”. Bu proeksiyani hosil qilishda resipientning ongi prizma vazifasini o‘taydi. Shuning uchun ham har bir resipient hosil qilgan matnning mazmuniy obrazi bir xil bo‘lmaydi. Resipient ongidagi mazmuniy obrazning asl matn mazmuniga adekvatligi uning yaxshi tushunilgani yoki to‘g‘ri tushunilganligini bildiradi. Shunga asosan, tushunishning sifati darajalar bilan belgilanadi. Tushunish darajalarining ajratilishi turlicha. V.P.Belyanin tushunish umumiyligi holatda uchta darajadan iboratligini ta’kidlaydi. Boshlang‘ich daraja eng umumiyligi daraja bo‘lib, unda nutqiy bayonning asosiy predmeti, gap nima haqida ekanligi tushuniladi. Keyingi, mazmun mundarijani tushunish darjasini tinglovchi so‘zlovchining nima haqida nimalar deganini anglaydi. Uchinchi daraja eng yuqori daraja bo‘lib, u qanday gap, nima uchun va qanday lisoniy vositalar bilan aytilganini tushunish bilan xarakterlanadi. Tushunishning bu darjasini so‘zlovchi tomonidan tanlangan lisoniy vositalarni baholashni ham o‘z ichiga oladi. Bir inson tushunishning turli darajalarida turgan bo‘lishi ham mumkin yoki bir auditoriyadagi resipientlar bir matnni birga tinglanganda ham tushunishning turli darajalarini namoyon etishi mumkin.

Biz o‘z tadqiqotimizda matnni qabul qilishning mazmuniy jihatini o‘rgandik va unga nisbatan “mazmuniy persepsiya” terminini qo‘lladik. Matn mazmuniy persepsiysi resipient ongida matn proeksiyasining hosil bo‘lishi bilan

yakunlanishini aytgan edik. Mazkur proeksiyaning asl matn bilan mosligi yoki mos emasligini resipientlardan olingan bayonlar misolida tekshirish mumkin.

Bayonlar resipient matn mazmuni haqida to‘g‘ri yo noto‘g‘ri xulosa chiqarganligi yoxud matnni tushunganligi yo tushunmaganligini tahlil qilish imkonini beradi. Biz “tushunish” terminini matn mazmuni haqida resipientning chiqargan xulosasiga nisbatan qo‘llaymiz.

Insonning psixik faoliyatida obyektivlik va subyektivlik farqlanadi. Matnni tushunishda ham shu jihatlar ajratiladi. Matnning tuzilishi, undagi so‘zlarining ma’nosи va sintaktik konstruksiyalarining to‘g‘ri hal qilinishi tushunishning obyektiv amalga oshishini ta’minlaydi. Tushunishning subyektivligi ijtimoiy va individual-psixologik omillar bois yuzaga keladi. Ya’ni obyektivlik va subyektivlik bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilar ekan, tushunishning obyektiv amalga oshishiga to‘sinqilik qiluvchi omillar (masalan, taassub, emotsionallik) kuchlilik qilganda tushunish subyektiv amalga oshadi, deyish mumkin.

Mazkur bobda tushunish bilan bog‘liq lingvistik va ekstralinguistik omillarga to‘xtalamiz. Gazeta matnining o‘ziga xosligi sifatida gazeta sarlavhalarining tushunilishiga alohida e’tibor qaratamiz. Shuningdek, gazeta matnni tushunishda xabardorlik darajasining ahamiyati, alohida so‘zning matnni tushunishdagi ahamiyati kabi masalalarni tahlil qilamiz. Bu tahlil tajribalar asosida amalga oshiriladi.

### Ushbu amaliy mashg‘ulot davomida quyidagilarni bajarish lozim:

1. *Tinglovchilarining matnning tushunilishiga ta’sir etuvchi lingvistik omillar haqidagi mulohazalari (munozara, suhbat).*
2. *Tinglovilarining matnning tushunilishiga ta’sir etuvchi ekstralinguistik omillar haqidagi mulohazalari (munozara, suhbat).*

**1-mashq.** Jadvalda berilgan sarlavhalar va ularga tajriba davomida berilgan javoblarga qarab ularning tushunilishida rol o‘ynagan lingvistik va ekstralingvistik omillarni aniqlang.

	Sarlavhalar	Maqolaning mazmuni haqidagi to‘g‘ri javoblar soni	Maqolaning mazmuni haqidagi noto‘g‘ri javoblar soni	Erkin assotsia siyalar soni	Javob yozma ga larning soni
A	Shvesiya kronada qoladigan bo‘ldi.	51	7	6	9
	Yangi rezolyusiya ma’qullanmadidi.	38	14	9	12
	Britaniya elchixonasi o‘qqa tutildi.	32	13	17	11
	Tabiiy ofat Seulga qimmatga tushmoqda.	<b>56</b>	2	15	0
	Telefon kompyuter vazifasini bajaradi.	45	7	18	3
B	Huquq amaldordami?	18	42	12	1
	Kreditni kimga bergen ma’qul?	16	12	43	2
	Pulni deb yolg‘on to‘qish shartmi?	3	37	30	3
V	Shoirning “Sahroyi gullar”i.	39	18	6	10
	Ingushetieda portlash.	50	4	7	12
	Kosonsoyda shunday go‘sha bor.	37	12	12	12
	O‘zbek talaffuzi.	27	30	11	5
	Urgutlik afandilar.	53	4	9	7
	“Paxtabank”ning yuksak unvoni.	32	24	7	10

	Bu uyning chirog‘i hamisha yoniq.	17	28	20	8
	Poklik.	8	51	10	4
G	Akademiya “Ozodlik”ni sudga berdi.	21	26	9	17
	AQSh grantlari taqdimoti.	21	43	2	7
	Gumanitar inqiroz yoqasida.	5	46	2	20
	Abdulla - g‘irt shoir.	21	35	6	11
	Terror: Made in America	23	35	7	8

### TOPSHIRIQ YECHIMI:

(a) guruhiba mansub sarlavhalar resipientlar tomonidan yaxshiroq tushunilgan. Sababi, darak gap shaklidagi sarlavhalarda informativlik yuqori bo‘ladi. Agar bunday sarlavhalar til lug‘atining faol qatlamidan bo‘lsa, resipientda maqolaning umumiy mazmuni haqida to‘g‘ri tasavvur uyg‘otadi.

(b) tipidagi sarlavhalar aynan savolga javob shaklidagi assotsiatsiyalarni yuzaga keltirgan. Bunday gaplarning matn sarlavhasida yoxud matn ichida qo‘llanishi resipient ongida o‘z javobini yoki maqolada so‘z yuritilayotgan mavzuga munosabatini faollashtiradi.

(v) tipiga oid sarlavhalarga ham mos assotsiatsiyalar ko‘proq keltirilgan (masalan, Shoirning “Sahroiy gullar”i – 39ta, “Ingushetieda portlash”- 50ta, “Paxtabank”ning yuksak unvoni – 32ta, “Kosonsoyda shunday go‘sha bor” – 37ta). Mazkur tip sarlavhalar boshqa tip sarlavhalarga nisbatan ko‘proq qo‘llanadi. Xususan, maktab darsliklarida, gazeta, jurnallarda, televideniyada. Ularning tushunilishidagi bu o‘rtacha ko‘rsatkichni shu bilan izohlash mumkin bo‘ladi.

(g) Sarlavhalarning tarkibida so‘zlarning resipient uchun noodatiy bo‘lgan kontekstda qo‘llanishi yoki notanish so‘zlardan sarlavhadan foydalanish alohida so‘zlarning assotsiatsiyalarini yuzaga keltiradi.

**NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Matnni tushunishdagi leksik-morfologik darajada nima bo‘ladi?
2. Qaysi turdagи assotsiatsiyalar matnni tushunishga ko‘proq xalal beradi?
3. Assotsiativ so‘zlar qanday turlarga bo‘linadi?
4. Egosentrik nutq nima?
5. Bolalar bilingvizmi muammolari tadqiqi qaysi fanlar uchun dolzarb sanaladi?

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. Toshkent, 1997.
2. Dahan, D. Magnuson, J.S. (2006) Spoken Word Recognition. In Handbook of Psycholinguistics. Elsevier Inc. P. 249-284.
3. Douglas Brown, H. (2002). English Language Teaching in the “Post-Method” Era: Toward Better Diagnosis, Treatment, and Assessment. In *Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. P. 9.
4. Ellis, A.W., & Young, A.W. (1988). Human cognitive neuropsychology. Hove, UK: Lawrence Erlbaum Associates Ltd.
5. Jo‘rayev A. Standart o‘zbek tili. Toshkent, 2017.
6. Krashen S. (1982). Principles and Practice in Second Lanugage Acquisition. Pergamon Press Inc. P.

### 3-MASHG'ULOT:

## MATNNING TUSHUNILISHIGA TA'SIR ETUVCHI EKSTRALINGVISTIK OMILLAR

#### REJA:

- 1. Matnning tushunilish jarayoni**
- 2. Matnning tushunilishiga ta'sir etuvchi ekstralinguistik omillar**
- 3. Savodxonlik darajasi.**

**Ishdan maqsad:** Matnning tushunilish jarayoni bir tomondan uning shakliga, ikkinchi tomondan mazmuniga bog'liq ekanligini o'rganish. Matnning na shakli, na mazmuniga bog'liq bo'lgan omillar mavjudligi haqida ma'lumotga ega bo'lish. O'quvchining psixologik holati, umumiylayotiy tajribasi, uning ongidagi stereotiplar, funksional savodxonlik darajasi kabi omillarni o'rganish.

**Tayanch iboralar:** matnning tushunilish jarayoni, shakl, mazmun, lingvistik omillar, ekstralinguistik omillar, o'quvchining psixologik holati, umumiylayotiy tajribasi, uning ongidagi stereotiplar, funksional savodxonlik darajasi.

**Masalaning qo'yilishi:** Retsipient matn strukturasini vaziyat strukturasi bilan moslashtirib qabul qiladi (vaziyat retsipientning ma'lum ilmiy yo'nalishdagi bilim darajasidir). Y.A.Sorokin

"Diskursni tushunish strategiyalari" asarida tushunishni jarayon sifatida talqin etar ekanlar, u nafaqat qabul qilinayotgan ma'lumotlarni qayta ishlash va ularning interpretatsiyasini, balki ichki kognitiv axborotni faollashtirish hamda undan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Matnni tushunishda grammatik tahlil zarur, ammo tayyor holdagi axborotning mavjudligiga ko'ra dekodlash jarayoni ikki xil kechishi mumkin:

1. Xabarning mazmuni gap konstruktsiyasining formal-grammatik belgilarini tahlil qilish hisobiga tushuniladi. Bunda tushunish jarayoni murakkab bo‘lib, qo‘shimcha trasformatsiyalar yordamida amalga oshadi,

2. Matn mavzusi borasida retsipientda axborot mavjud, grammatik tahlil shart emas. Tushunish “topqirlik” (dogadka) hisobiga bo‘lishi mumkin. A.R.Luriya

Matn mavzusidan xabardorlik matndagi murakkab konstruksiyalarni to‘g‘ri yechishda yordam beradi. Bunda retsipient so‘z yuritilayotgan tushunchalarning o‘zaro aloqasi haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lganligi sababdir.

Retsipientga matn berilganda uning ongida matn proeksiyasi hosil bo‘ladi, ya’ni retsipient matnni dekodlashi natijasida uning ongida matn mazmuni aks etadi.

Shu bilan birga shu matn mavzusiga aloqador informatsiya faollashadi.

Shu o‘rinda aytish mumkinki, yangi qabul qilingan matn bilan avvaldan mavjud bilim raqobatlashadi

Qaysi biri retsipient ongida dominant bo‘lsa, shu informatsiya bayon mazmunini, dominant bo‘limgani bayonning shakliy jihatlarini ta’minlaydi.

Lisoniy stimul assosida retsipientning emotsiyalari ham faollashadi

Agar retsipient o‘z emotsiyalarini nazorat qila olsa, bu holat matnni tushunishda xalal bermasligi mumkin.

Aks holda esa stimul matndagi ayrim so‘z, so‘z birikmasi, gap yoxud mazmuniy blokning ta’sirida faollashgan bilim to‘liq dominantlik qilib, berilgan lisoniy ifodani to‘g‘ri tushunishga xalal beradi.

Taassub retsipientning ijtimoiy mansubligi va o‘zlashtirgan bilimlari asosida yuzaga kelgan, ong harakatining cheklanishi bilan bog‘liq bo‘lgan, retsipient o‘zi qat’iy ishongan xulosalardir.

S. Plaus taassubni yuzaga keltiruvchi omillarni quyidagicha ajratadi:

- shaxsiy omillar- avtoritarizm va ijtimoiy ustunlikka intilish;
- kognitiv omillar- insonlarning kategoriyalar bilan fikrlash ko‘nikmasi;

- motivatsion omillar- o‘z-o‘ziga hurmat ehtiyoji;
- ijtimoiy omillar - insonning o‘zi mansub bo‘lmagan guruh vakillarini noto‘g‘ri baholashi.

## TOPSHIRIQLAR MAZMUNI

**1-mashq.** Berilgan matnda qo‘llangan bolaning nutqiga xos xususiyatlarni aniqlang va asoslang.

### Bo‘g‘irsoq

*Bi y boyakan, bi y yo‘g‘akan qadim-qadim zamonaladda bi y choy minan tampiy boyakan. Chol aytipti: “Tampiy, tampiy bo‘g‘issoq pishiyib bey”. “Unimiz yo‘g‘”, - dipti tampiy “Topib bey”, - depti. Keyin qoqip-qoqip bo‘g‘iysoq pishiyib tochchaga qo‘yip qo‘yganakan qochip ketipti bo‘g‘issoq. Ollidan ayiqpalvon chiqipti. Ayiqpalvon “Men sheni yeb qo‘yaman”, - dipti. “Meni yep qo‘yma men shenga qo‘shig‘ aytib beyaman”. “Qani ayt-chi?”*

*Men bo‘sirdoq Supyadagi un-uyvoq.*

*Buvamdan qochib teydim*

*Sendanam qochib ketaman, dipti-da qochib-qochib tetibdi. Keyin ollidan quyon chiqibdi. “Men sheni yeb qo‘yaman”, - dipti. “Meni yep qo‘yma men shenga qo‘shig‘ aytib beyaman”. “Qani ayt-chi?”*

*Men bo‘sirdoq*

*Supyadagi un-uyvoq.*

*Buvamdan qochib tetdim,*

*Ayiqdan qochib tetdim*

*Sennan qochish hech gapmas dipti-da qochib tetibdi. Keyin tetayotganakan ollididan tatta tulki chiqibdi. “Men seni yeyman bo‘sirdoq, asalcha, bunnimga chiqib qo‘shig‘ ayt dipti”.*

*Men bo‘sirdoq*

*Supyatadi un-uyvoq.*

*Bobomdan qochib teydim*

*Momamnan qochib teydim,*

*Ayiqdan qochib teydim*

*Sennan qochish hich gapmas dipti-da qochib tetibdi. Keyin dumidan ushlavopti.*

*Yep qo'yipti.*

(matn ToshDO 'TAU talabasi Iroda Usmonova tomonidan yozib olingan)

### **TOPSHIRIQ YECHIMI:**

Biy – bir, bor ekan – boyakan, chol – choy, bilan-minan, kampir-tampiy.

R, l fonemalari talaffuz jihatdan nisbatan murakkabligi sabab y fonemasi bilan almashtirilgan.

K fonemeasi til orqa undoshi, m, p – lab undoshlari. Bola uchun og‘iz bo‘shlig‘gida bir-biridan nisbatan uzoqroq turgan a’zolarni ketma-ket ishlatish og‘irlik qiladi. Shuning uchun *k* tovushi *k* ga nisbatan belgilari nuqtayi nazaridan yaqin turuvchi (ya’ni ikkalasi ham portlovchi, ikkalasi ham til undoshi) t tovushiga almashtirilgan.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Insonda lisoniy qobiliyatning shakllanishi masalasi qanday?
2. Bolaning tashqi ta’sirga javoblari qanday namoyon bo‘ladi?
3. Bola nutqining keying rivojlanish bosqichi haqida aytинг.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Nunan, D. (1991) Language Teaching Methodology. Prentice-Hall. Pp.25-35.
2. Richards, J. (2002) Theories of Teaching in Lanugage Teaching. // *Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. Pp. 19-26.
3. Richards, J. (2002) Theories of Teaching in Lanugage Teaching. In *Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. P. 20

4. Rustamova Sh. 12-13 yoshli bolalar nutqining sintaktik tahlili (ixtisoslashgan va oddiy mакtab o‘quvchilari misolida).// *Global ta’lim va milliy metodika masalalari*. Ilmiy-anjuman materiallari. Toshkent, 2020. B. 381.
5. Swan, M. (2000) Seven bad reasons for teaching grammar and two good ones. // *Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. Pp.148-152.

## 4-MASHG'ULOT:

### MATNNING TUSHUNILISHI: DARAJALAR VA BIRLIKLER

#### REJA:

- 1. Matnning tushunilishi**
- 2. Matnning tushunilish darajalari**
- 3. Matn birliklari haqida umumiy ma'lumot**

**Ishdan maqsad:** Matnning tushunilishi murakkab jarayon ekanligi hamda parallel kechadigan bir necha darajalardan iborat bo'lishi haqida ma'lumotga ega bo'lish. Matnni tushunish har qanday ta'limning asosini tashkil qilishi, shuning uchun mazkur jarayonni psixolinguistik tahlil qilish va shu asosda mazmunni yetkazishda samarador usullarni topish.

**Tayanch iboralar:** *matnning tushunilishi, matn darajalari, matn birliklari, assotsiativ tajriba*

**Masalaning qo'yilishi:** Matn persepsiysi murakkab jarayon sifatida turli aspektlarda o'r ganilgan. Bularning asosiylari sifatida kvantitativ, kognitiv, psixologik va psixolinguistik yo'naliishlarni ko'rsatish mumkin.

Psixologiya tilning qabul qilinishini insonning boshqa perceptiv faoliyatlarini qatorida o'r ganadi va asosan, tilning qabul qilinishi ulardan nimasi bilan farq qilishiga e'tibor qaratadi. Persepsiya darajalari ham shular asosida ajratiladi. Masalan, N.I.Jinkin mazmuniy persepsiya jarayonida nutqiy signalni sensor-perceptiv qayta ishlashning 7ta darajasini farqlaydi. Birinchi darajada sintetik-akustik obraz tahlil qilinadi va tartiblanadi. Ikkinci darajada belgilar ajratiladi va gap haqida xulosa qilingunicha xotirada ushlab turiladi. Uchinchi darajada farqli belgilarni ajratish asosida so'zning dastlabki sintezi amalga oshiriladi. To'rtinchi darajada so'z to'liq sintez qilinadi. Beshinchi darajada so'zning ma'lum gapga mansubligini belgilovchi jihatlarining sintezi amalga oshiriladi. Oltinchi darajada

to‘liq xabarning mazmunini aniq belgilash maqsadida analiz va sintez qaytadan amalga oshiriladi. Yettinchi darajada mazmun tushuniladi va u ma’lum shaklda saqlab turiladi<sup>11</sup>.

Aynan matnning mazmuniy persepsiyasini T.A.Drozdova tajribaviy tadqiq etib, 3 ta asosiy daraja hamda ularning tarkibida 8ta ichki darajani ajratadi. Darajalar taxmin, subyektiv baho, diqqat, xulosa, argumentatsiya kabi psixologik tushunchalar asosida belgilangan<sup>12</sup>.

Kognitiv psixologiya vakillari diskursning tushunilishida 5ta darajani farqlaydilar:

- a) tashqi kod darjasи;
- b) matniy baza darjasи;
- v) vaziyat bazasi darjasи;
- g) kommunikatsiya darjasи;
- d) matn janri darjasи<sup>13</sup>.

T.A. van Deyk til qo‘llanishining kognitiv nazariyasi bo‘yicha amalga oshirgan bir tadqiqotida Livan prezidentligiga nomzod V.Jmayelning o‘ldirilishi haqidagi 700 ta xabarni 100 ta davlatda chiquvchi 250 gazeta misolida o‘rganib chiqadi. “Bangkok post” gazetasida (1982-yil, 18 sentyabr) bosilgan xabarni struktur jihatdan tahlil etadi. Olim gazeta matnini tushunishning 6ta darajasini ajratadi. Tushunish jarayonida matnning mazmuniy strukturasi o‘quvchi tomonidan qanday qayta ishlanishiga e’tibor qaratadi<sup>14</sup>.

T.A. Apollonskaya, Ye.V. Gleybman, I.Z. Manoli xabar qabul qilinishining 3ta asosiy darjasini belgilaydilar:

- verbal-sintagmatik daraja;
- designativ daraja;
- denotativ daraja.

<sup>11</sup> Жинкин Н.И. Механизмы речи. -М., 1958. –С.117-124.

<sup>12</sup> Дроздова Т. А. Психологические особенности понимания текста как процесса// Психологические механизмы порождения и восприятия текста. Сборник научнўх трудов. МГИИА Вып. 23. -М., 1985. -С.111

<sup>13</sup> Grasser A.C., Millis K.K. and Zwaan R.A. Discourse comprehension. Psychology. 1997. 48: -P.167-169

<sup>14</sup> Ван Дейк Т.А. Структура новостей в прессе// Язык. Познание. Коммуникация. -М., 1989. -С.252-253

Verbal-sintagmatik daraja o‘z navbatida fonetik (grafik) daraja, leksik-morfologik daraja va sintaktik darajalarga bo‘linadi. Designativ daraja esa operatsional-designativ daraja va boshqaruvchi darajalarga bo‘linadi<sup>15</sup>.

Kolin M. Braun, P.Xagurt, M.Kutas quyidagi darajalarini farqlaydilar:

- a) signalni boshqa signallardan farqli o‘larоq nutqiy signal sifatida anglash;
- b) signalning tarkibiy qismlarga segmentatsiyasi;
- v) segmentatsiya qilish jarayonining mahsuliga asoslangan holda mental leksikonga chiqish (dostup);
- g) leksikondan mos so‘zni tanlash;
- d) oxirgi so‘zni hisobga olgan holda gap uchun mos grammatik strukturani tuzish;
- y) gap tarkibidagi so‘zlar o‘rtasida semantik aloqani o‘rnatish<sup>16</sup>.

Biz matniy persepsiyaning darajalarini ajratishda yuqorida qayd etilgan modellarga va tajribamiz materiallariga tayandik.

Kognitiv modellarda matn spesifik, asosiy ob’ekt sifatida olingan bo‘lsa, psixologik modellarda inson ob’ekt sifatida olinadi, psixolingvistik modellarda matn nutqiy oqim sifatida qaraladi.

Biz matnni alohida birlik sifatida olib, persepsiya jarayonida uning qanday parchalanishi, matn qanday birliklardan boshlab qabul qilinishi va yaxlit matn tushunilgunga qadar birliklar qanday o‘zgarib borishiga e’tibor qaratdik. Tajriba materiallari persepsiyaning quyidagi darajalarini o‘zida namoyon etadi:

- a) stimul(yoki ta’sir etuvchi) matndagi lisoniy faktorlar (sema, uslub, shakl) asosida assotsiatsiyalarning yuzaga kelishi;
- b) assotsiatsiyalarning matnga xos so‘zlar bilan almashinishi yoki matndagi so‘zlarning aynan eslab qolinishi;

---

<sup>15</sup> Аполлонская Т.А., Глейбман Е.В., Маноли И.З. Порождающие и распознавающие механизмы функциональной грамматики. -Кишинёв, 1987. -С.42-47.

<sup>16</sup> Brown Colin M., Hagoort P., Kutas M. Postlexical Integration Processes in Language Comprehension: Evidence from Brain- Imaging research // The New Cognitive Neurosciences. Ed. Michael S. Gazzaniga. Massachusetts Institute of Technology, 2000. -P.881.

- v) eslab qolingan so‘zlarning kontekstual ma’nolarining konkretlashishi, xususan, so‘zlarning birikmalar, birikmalarning sintagmalar darajasiga chiqishi;
- g) stimul matnga xos mazmuniy strukturaning shakllanishi;
- d) yaxlit matn proeksiyasining hosil bo‘lishi.

Bu darajalarni muayyan ketma-ketlikda qat’iy amalga oshadi, deb bo‘lmaydi. Bitta matnning persepsiysi davomida bu darajalarning hammasi ishlashi mumkin, xuddi shuningdek, persepsiya jarayoni bularning ayrimlari bilan chegaralanishi ham mumkin. Bu darajalar umumiy persepsiya jarayonining teng huquqli tashkil etuvchilaridir. Nutqiy vaziyat, resipientning perceptiv qobiliyati, tafakkuri bilan bog‘liq holda bu darajalarning ulushi o‘zgarishi mumkin.

**Dastlabki darajada** resipient ongida assotsiatsiyalar yuzaga keladi. Assotsiatsiyalarning yuzaga kelishini persepsiyatagi “bo‘shliq”larni to‘ldirishga urinish sifatida xarakterlash mumkin. Bu “bo‘shliq”lar tashqi ta’sirning natijasi (masalan, shovqin) yoki resipient ongidagi cheklanishlar (masalan, diqqatning bo‘linishi, taassub, perceptiv qobiliyatning sustligi) natijasi sifatida yuzaga kelishi mumkin.

Paradigmatik assotsiatsiyalar matndagi biror so‘zga ma’no jihatidan yoki shakl jihatidan o‘xhash bo‘ladi. Tajriba davomida paradigmatic assotsiatsiyalarning kuzatilishi dekodlashda qisqa muddatli xotirada so‘z yoki birikmaning shakli saqlab qolinmaganligini bildiradi.

Ma’no jihatidan stimul matndagi so‘zga yaqin turuvchi assotsiativ so‘z resipientga matnni tushunishda deyarli xalal bermaydi. Masalan, I-51-raqamli resipient «mamlakatimizda» so‘zining o‘rniga “yurtimizda” so‘zini qo‘llagan va stimul matndagi birinchi gapning mazmuniga zarar yetmagan: “*Yurtimizda mehmon bo‘lib turgan Malayziya ishbilarmonlari va ta’lim sohasi mutaxassislaridan iborat delegatsiya O‘zbekiston Respublikasi Axborot va telekommunikatsiya agentligida bo‘ldi*” (I-51). Yoki “bosh director” o‘rniga

“boslig‘i” qo‘llangan holat: “*Axborot agentligi boslig‘i Abdulla Oripov bilan muzokaralar olib bordi*”(I-17).

Xuddi shunday holatni ikkinchi tajribada *ziyorat* so‘ziga *sayohat* so‘zining assotsiatsiya bo‘lganida ko‘rishimiz mumkin: “*U go‘zal va qadimi Samarqandga sayohat qildi*” (II-10).

Stimul matn tarkibidagi lisoniy vositalarga shaklan o‘xshash bo‘lgan assotsiatsiyalar, ma’nosi stimul matndagi so‘zdan uzoq bo‘lsa, matnni to‘g‘ri tushunishga xalal beradi. Masalan, 18-raqamli resipientning bayonida “delegatsiya” so‘zining ma’nosi tushunilmaganligini berilgan gapdan ko‘rish mumkin: “*Illi tomonlama hamkorlik delegatsiyasi bo‘lib o‘tdi*”. Xuddi shu “delegatsiya” so‘ziga assotsiatsiya bo‘lib “konferensiya” so‘zi chiqqan va: “*Bu konferensiyada axborot texnologiyasi, ishbilarmonlik rivojlantirish masalasi ko‘rildi*”<sup>17</sup>. “Delegatsiya”, “konferensiya”, “komissiya” so‘zlarida ma’noviy emas, balki shakliy o‘xshashlik asosidagi assotsiativ bog‘lanish bor. Ma’no xususidagi informatsiya yetarli bo‘lmagach, shakl o‘z-o‘zidan muhim omilga aylangan.

Ikkinchi tajribada esa *jabha* so‘zining o‘rniga *jahon* so‘zining qo‘llanganini ko‘ramiz: “*Mamlakatimizda boshqa jahonlar kabi Oliy ta’lim sohasiga ham katta e’tibor berilayotgan ekan*” (II-13).

Tajriba natijalarida sintagmatik assotsiatsiyalarning mavjudligi resipient ongida so‘zning ma’nosи dekodlanishi bilan birgalikda so‘zning gapdagi o‘rni va mavqeiga oid ma’lumotlar bo‘yicha ham tahlil boshlanganligini bildiradi. Sintagmatik assotsiatsiyalar matnni tushunishga ko‘proq xalal beradi. Bizning tajribamizda “kelishib olindi”, “shartnomal tuzildi”, “yutuqlarni qayd qilib borishdi”, “imzolandi”, “aloqa o‘rnatildi”, “aloqa vositasi” kabilar sintagmatik assotsiatsiya bo‘lgan. Sintagmatik assotsiatsiyalar asosida asl matnning mazmuniga mos bo‘lmagan quyidagi gaplar tuzilgan: “Bundan tashqari ikki tomonlama sarmoyaviy shartnomal tuzildi” (I-49) “*Illi tomonlama shartnomal*

<sup>17</sup> Resipientlardan olingan bayonlarni asliday saqlab qolish maqsadida resipientlar yo‘l qo‘ygan grammatik, uslubiy xatolar tuzatilmadi.

imzolandi” (I-37), “Mana shu sohada O‘zbekistonda qilinayotgan yutuqlar qayd qilindi” (I-13), “O‘zbekiston Respublikasi bosh vaziri o‘rinbosari direktori Abdulla Oripov Malayziya delegatsiyasi o‘rtasida ikki tomonlama shartnama imzolandi. Shartnama Respublikamizning oliy o‘quv yurtlarining nufuzli o‘quvchilarini tanlab olishni maqsad qilib qo‘yishdi” (I-14).

Sintagmatik assotsiatsiyalarning matnda diskogerentlikni keltirib chiqarish ehtimoli yuqori. Assotsiatsiya sifatida yuzaga kelayotgan birikma o‘ziga yaqin turgan so‘zdan kelib chiqadi. Bunda gapning boshidagi egaga o‘rtadagi to‘ldiruvchi yoki holga assotsiatsiyalanayotgan kesim mos kelmay qolishi mumkin. Yuqorida berilgan misollardagi mavjud xatolarni shu bilan izohlash mumkin. Sintagmatik assotsiatsiyalar predikativlikka ega bo‘lgani uchun ham matnning umumiyligi mazmunini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Resipientlardagi assotsiatsiyalarning yuzaga kelishi stimul matn mavzusi, uslubi bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Bizning misolimizda resipientlarda yuzaga kelgan assotsiatsiyalarning ba’zilari publisistik uslub doirasida qo‘llanuvchi lisoniy birliklardir. Bu kabi assotsiatsiyalar resipientlarning qaydlaridan o‘rin olganligi matn mazmuniy persepsiyasining dastlabki darajalaridanoq qabul qilinayotgan matnning uslubi xususida xulosalar qilinishidan dalolatdir.

Yuqoridagilarga asoslanib, aytishimiz mumkinki, assotsiativ darajada so‘zlarning ma’nolari dekodlanishi bilan birga ularning gap tarkibidagi, matnning mazmuniy bloki tarkibidagi o‘rni va mavqeい xususida ham tahlil boshlanadi.

Keyingi daraja bu **leksik-morfologik daraja** bo‘lib, unda avvalgi darajada boshlangan dekodlash va tahlil davom etadi. Assotsiativ darajada bu tahlilning natijasi assotsiativ so‘zlar bo‘lsa, leksik-morfologik darajada tahlilning natijasi asl matndagi so‘zlar va so‘z shakllari bo‘ladi.

Resipientda stimul matndagi so‘z qabul qilinishida uning ma’nosi tushunilishi va shakli xotirada aynan saqlanmasligi mumkin. Ma’no tushunarli

bo'lganligi uchun shu so'zning sinonimi assotsiatsiya sifatida yuzaga chiqadi. Matnni qayta eshitish jarayonida so'zning matndagi shakli yaxshi eslab qolinadi.<sup>18</sup>

Uchinchi, ya'ni **kontekstual darajada** tushunilayotgan mazmun so'zlar darajasidan birikmalar yoki sintagmalar darajasiga ko'tariladi. Bu holatni birinchi tajribada berilgan matnni ikkinchi marta, uchinchi marta eshitishdan so'ng qayd etilgan lisoniy vositalarda kuzatdik. 47-betdagи jadvalda resipientlarning matnni uch marta eshitishdan so'ng qayd etgan vositalarini keltirdik. Bunda birinchi bosqichda so'zlarning alohida-alohida eslab qolinganligini, ikkinchi bosqichda alohida so'zlar birikmalar shaklida qayd etilganligini, uchinchi bosqichda sintagmalar eslab qolinganligini ko'rshimiz mumkin.

Bu darajada avvalgi darajalarda boshlangan so'zning mazmuniy blokdagi mavqeи (ya'ni mazmuniy bloklarning bog'lanishidagi ishtiroki) xususidagi tahlil davom etadi. So'zlarning lokal kontekstdagi, ya'ni bir-ikki gap doirasidagi, ishtiroki yuzasidan dastlabki xulosalar qilinadi.

To'rtinchi, ya'ni **struktural darajada** stimul matnga xos mazmuniy bloklarning shakllanishi va tartiblanishi ro'y beradi. Bu darajaning ko'rsatkichlarini avvalgi darajalarniki kabi kuzatishning imkonи yo'q. Matn bloklarining hajmi kattaligi sabab ular insonning xotirasida aynan saqlanishi qiyin. Ammo tajribaning birinchi bosqichi davomida resipientlar ayrim bloklarga tegishli so'zlarni avval, boshqa blokka tegishli so'zlarni keyin qayd etganini ko'rdik. Ya'ni 1-eshitishda ma'lum blokning so'zları boshqalariga nisbatan ko'proq eslab qolinadi, 2-eshitishda boshqa blokning so'zları ko'proq eslab qolinadi. Qaysi blokning so'zları ko'proq eslab qolinishi bayonda shu blokning to'laroq ifodalanishini ta'minlaydi.

Umumiyl holatda ma'lum blokka ko'proq e'tibor qaratilishi matn ichida bloklar muvozanati (mutanosibligi)ni buzadi va shu bilan matnning yaxlitligiga putur yetkazadi.

---

<sup>18</sup> Dastlabki eshitishda qayd etilgan assotsiatsiyalarning matnga xos so'zlar bilan almashinishiga doir misollar dissertatsiyamizning 44-45-betlarida berilgan.

Oxirgi, ya'ni **matniy darajada**, resipient ongida matnning proeksiyasi hosil bo'ladi. Bu daraja har doim ham amalga oshavermaydi.

Tajribalar davomida hamma matnni baravar tinglagan, bir xil vaqt ichida o'qib chiqqan bo'lsa-da, olingan bayonlar resipientlarning mazmuniy persepsiyaning turli darajalarida turganligini ko'rsatdi. Bayonlar persepsiyaning turli darajalarini namoyon etishiga ko'ra quyidagicha bo'lindi:

## 2.12 jadval

Persepsiyaning qaysi darajasini aks ettirishiga ko'ra bayonlarning statistikasi

	1-tajribada	2-tajribada
Leksik-morfologik darajani aks ettiruvchi bayonlar	13	5
Kontekstual darajani aks ettiruvchi bayonlar	17	21
Struktural darajani aks ettiruvchi bayonlar	26	52
Matniy darajani aks ettiruvchi bayonlar	4	10

### *Ushbu amaliy mashg'ulot davomida quyidagilarni bajarish lozim:*

1. Tinglovchilarning matnning tushunilishi murakkab jarayon ekanligi hamda parallel kechadigan bir necha darajalardan iborat bo'lishi haqidagi mulohazalari (munozara, suhbat).
2. Matn sarlavhalarini psixolinguistik tahlil qilish.

## TOPSHIRIQLAR MAZMUNI

**1-mashq. Quyidagi matnlarni tahlil qiling va tushunishning qaysi darajasini aks ettirayotgani haqida xulosa qiling.**

**Malayziya delegatsiyasi Toshkentda.**

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosari, Aloqa va axborotlashtirish agentligi bosh direktori Abdulla Oripov bilan uchrashuvda axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida ikki tomonlama

sarmoyaviy hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan fikr almashildi. Mamlakatlarimiz o'rtaсидаги aloqalarning tobora mustahkamlanib borayotgani ta'kidlandi.

Muloqot chog'ida yurtimiz mutaxassislarini Malayziyaning nufuzli oliy o'quv yurtlarida tahsil olishini tashkil etishga oid masalalar ham muhokama qilindi.

### **Resipientning bayoni:**

Mamlakatimizga tashrif buyurgan Malayziya ishbilarmon va axborot agentligi Respublikamiz Bosh vazir o'rribosari Abdulla Oripov bilan uchrashuv chog'ida fikr almashildi.

Respublikamiz masalalari muhokama kilindi. Uchrashuv chog'ida Malayziyada tahsil olish rejalashtirildi.

### **I-20-raqamli recipientning bayoni:**

Mamlakatimizda mehmon bo'lib turgan Malayziya delegatsiyasi a'zolari va ta'lim sohasidagi ishbilarmonlar O'zbekiston Respublikasi axborotlashtirish va telekommunikatsiya agentligi bosh direktori O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri Abdulla Oripov bilan sarmoyaviy kelishuv haqida munozara olib borildi. Ikki tomonlama kelishuvda axborot va telekommunikatsiyani rivojlantirish muhokama qilindi. Talabalarni chet el Oliy o'quv yurtlarida o'qitish kabi masalalar muhokama qilindi.

### **TOPSHIRIQ YECHIMI:**

1-bayonda Mamlakatimizga tashrif buyurgan Malayziya, axborot agentligi, Bosh vazir o'rribosari, Abdulla Oripov bilan uchrashuv, muhokama kilindi, tahsil olish, fikr almashildi asl matnda mavjud so'z birikmalari va sintagmalar. Resipient mazkur lisoniy vositalarning ichki bog'lanishini tushungani bilan, gapning mazmunini tushuna olmagan. Shu sabab bu lisoniy vositalarni gap sifatida bog'lay olmagan.

Shuningdek, ishbilarmon, masalalari so'zlarini ham asl matndan eslab qolingga, biroq ishbilarmon so'zining matndagi "-lari" qo'shimchasi tushirib

qoldirilgan va asl matndagi masalalar so‘ziga “-i” qo‘shimchasi qo‘shilgan. Ya’ni, resipient so‘zning leksik ma’nosini tushungan, ammo so‘zning matndagi o‘rni va vazifasini anglay olmagan.

Bu holat bayon yozish vaqtida resipient mazmuniy persepsiyaning leksik-morfologik darajasida turganligini bildiradi.

2-bayonda esa Mamlakatimizda mehmon bo‘lib turgan Malayziya, O‘zbekiston Respublikasi, agentligi bosh direktori, Abdulla Oripov bilan, ikki tomonlama, muhokama qilindi, Oliy o‘quv yurtlarida, axborot va telekommunikatsiya asl matndan yaxlit eslab qolingga vositalar.

Eslab qolingga so‘z shakllari: masalalar, axborotlashtirish, telekommunikatsiya, rivojlantirish.

Shuningdek, ishbilarmonlar so‘zida “-i” qo‘shimchasi tushirib qoldirilgan, bosh vazir birkmasiga, aksincha, asl matnda bo‘lmagan “-i” qo‘shimchasi, telekommunikatsiya so‘ziga “-ni” qo‘shimchasi qo‘shilgan.

Resipient axborotlashtirish va telekommunikatsiya agentligi birikmasini qo‘llagan. Bunda u axborotlashtirish teng bog‘langan birikmaning tarkibiy qismi ekanligini va agentligi so‘zi bilan tobe bog‘lanish hosil qilayotganini tushungan. *Sarmoyaviy* so‘zining ham tobe bog‘lanishli birikmaning tarkibiy qismi (ergash so‘z) ekanligini bilgani holda asl matndagi *hamkorlik* so‘zini eslab qola olmaganligi uchun *kelishuv* so‘zini qo‘llagan. Bunday birikmaning o‘zbek tilida qo‘llanmasligini e’tibordan chetda qoldirgan. Umuman, *sarmoyaviy hamkorlik* birikmasi tilimizda keng qo‘llanmasligi uning boshqa resipientlar tomonidan ham eslab qolinmasligiga sabab bo‘lgan.

Resipient bayonning birinchi gapida kesimgacha bo‘lgan so‘zлarni to‘g‘ri bog‘lay olgan, demak, o‘zi qo‘llagan vositalarning kontekstual ma’nosini nisbatan yaxshiroq anglagan. Bu o‘rinda kesimning egaga mos emasligini ikki xil sabab bilan tushuntirish mumkin. Birinchisi, asl matn blokining topiki yaxshi anglanmagan. Ikkinchisi, mazmun tushunilgani bilan uni qayta yaratayotganda

resipientning diqqati bo‘lingan. Diqqatning bo‘linishi gapning o‘ta uzunligi tufayli yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin.

Bayondagi keyingi gapda *kelishuv* so‘zining noo‘rin qo‘llanganligini ko‘ramiz. Oxirgi gap esa asl matnda berilgan informatsiyaning to‘liq o‘zlashtirilmaganligini aks ettiradi.

Mazkur holatlar resipient bayon yozish vaqtida mazmuniy persepsiyaning kontekstual darajasida turganligini, ya’ni resipient so‘zlarning kontekstual ma’nolarini oydinlashtirganligi, lekin asl matndagi gapning mazmunini yaxlit holda anglashga ulgurmaganligini ko‘rsatadi.

### ***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. Matnning tushunilishida parallel kechadigan darajalar haqida aytинг.
2. Matnning psixolingvistik tahlili qanday amalga oshiriladi?
3. Assotsiativ darajaning o‘ziga xosliklarini tushuntiring.
4. Leksik-morfologik darajaning o‘ziga xosliklarini tushuntiring.
5. Kontekstual darajaning o‘ziga xosliklarini tushuntiring.
6. Struktural darajaning o‘ziga xosliklarini tushuntiring.
7. Matniy darajaning o‘ziga xosliklarini tushuntiring.

### ***ADABIYOTLAR RO‘YXATI:***

1. Alatis, James E. Linguistics and the Education of Language Teachers: Ethnolinguistic, Psycholinguistic, and Sociolinguistic Aspects. Georgetown University Round Table On Languages and Linguistics (Series); Georgetown University Press 1995.
2. Andrews, S. Teacher language awareness. Cambridge University Press. 2007.

3. Friend, M., & Keplinger, M. (2003). An infant-based assessment of early lexicon acquisition. *Behavior Research Methods, Instruments, & Computers*, 35, 302–309.
4. Gagarina, N., Gülzow, I. (Ed.s) The acquisition of verbs and their grammar: the effect of particular languages. Springer. The Netherlands. 2008.
- Hoff, E. (2003). The specificity of environmental influence: Socioeconomic status affects early vocabulary development via maternal speech. *Child Development*, 74, 1368–1378.
5. Жинкин Н.И. Механизмы речи. -М., 1958. –С.117-124.
6. Дроздова Т. А. Психологические особенности понимания текста как процесса// Психологические механизмы порождения и восприятия текст
7. Сборник научнўх трудов. МГИИЯ Вып. 23. -М., 1985. -С.111

## V. KEYSLAR BANKI



**Keyslar uchun “keys-stady” metodi asos sanaladi.** “Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” — aniq vaziyat, hodisa, “stadi”— o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### **Modul bo‘yicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi.**

**1-keys.** Matnning tushunilishida parallel kechadigan darajalar haqida ayting.

**2-keys.** Matnning psixolingvistik tahlili qanday amalga oshiriladi?

**3-keys.** Assotsiativ darajaning o‘ziga xosliklarini tushuntiring.

**4-keys.** Leksik-morfologik darajaning o‘ziga xosliklarini tushuntiring.

**5-keys.** Kontekstual darajaning o‘ziga xosliklarini tushuntiring.

**6-keys.** Struktural darajaning o‘ziga xosliklarini tushuntiring.


**7-keys.** Matniy darajaning o‘ziga xosliklarini tushuntiring.

**8-keys.** Insonda lisoniy qobiliyatning shakllanishi masalasi qanday?

**9-keys.** Bolaning tashqi ta’sirga javoblari qanday namoyon bo‘ladi?

**10-keys.** Bola nutqining keying rivojlanish bosqichi haqida ayting.

## VI.GLOSSARIY



TERMIN	O'ZBEK TILIDAGI SHARHI	INGLIZ TILIDAGI SHARHI
<b>Assotsiativ daraja</b>	Berilgan matnning elementlari asosida assotsiatsiyalarning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi.	Characterized by the occurrence of associations based on the elements of a given text.
<b>Bo'g'in</b>	(tilshunoslikda) so'zning alohida talaffuz qilish mumkin bo'lgan kichik bo'lagi. Fransuz tilshunosi M. Gammon 1929-yil da B. nutq artikulyatsiyasidagi muskullarning kuchlanishiga asoslangan, degan fikrni ilgari surgan. Bunda nutq oqimidagi tovush tizimining izchil holatda kuchlanishi va bo'shashishi nazarda tutiladi, ya'ni nutq qismlari kuchlanish bilan boshlanadi va yuqori nuqtasidan kuchlanish bilan tugaydi. Shu takrorlanish bo'g'inga ajralishdir. Bu o'zbek tilshunosi Ayub G'ulomovning B. nutqning bir nafas to'lqinidagi qismidir, degan qarashiga ham mos keladi. "Boshlang'ich" so'zi 3 B. li bo'lib, har biri kuchlanish bilan boshlanadi. Unlisi baland nuqtasi hisoblanib, undoshda kuchsizlanib tugaydi. B. kuchli boshlanishi va kuchli tugashi ham mumkin; 2) (poeziyada) eng kichik o'lchov birligi.	(in linguistics) a small part of a word that can be pronounced separately. The French linguist M. Gammon argued in 1929 that B. was based on the tension of the muscles in speech articulation. This involves the gradual strengthening and relaxation of the sound system in the speech stream, that is, parts of speech begin with a voltage and end with a voltage at a high point. This repetition is the separation of the syllables. This is in line with the opinion of the Uzbek linguist Ayub Gulyamov that B. is a part of speech in one breath. The word "initial" is 3 B., each beginning with a voltage. The flour is a high point and ends in a weak consonant. B. can have a strong start and a strong end; 2) (in poetry) the smallest unit of measurement. Also called Hijo. It plays an important role in the structure of poetry. In this case, each word is not considered

	Hijo deb ham ataladi. She'r tuzilishida muhim ahamiyatga ega. Bunda har bir so'z alohida emas, balki ular nutq butunligi, so'zlarning o'zaro fonetik munosabatida qaraladi.	separately, but they are considered in the integrity of speech, in the phonetic relationship of words.
<b>Daraja</b>	Psixolinguistik hodisalarining ma'lum bir turdag'i amalning bajarilishiga asoslanib ajratilgan tarkibiy qismi.	a component of psycholinguistic phenomena based on the performance of a particular type of action
<b>Dell modeli</b>	AQSHlik psixolog Gary Dellning so'z va uning ma'nosining inson ongida aks etishi bo'yicha tuzgan modeli.	American psychologist Gary Dell's model of the word and its meaning in the human mind.
<b>Fonologik daraja</b>	Dell modelidagi daraja bo'lib, so'zning tovush tomonini aks ettiradi.	It's a level in the Dell model that reflects the sound side of a word
<b>Fonologik kodlashtirish</b>	bu jarayonning natijasi urg'uli va urg'usiz bo'g'lnlardan tashkil topgan mavhum fonologik reprezentatsiyadir (ya'ni so'zning fonologik xususiyatlarining inson miyasida namoyon bo'lishi). Bu nutq bevosita yuzaga chiqishidan oldin ro'y beradigan jarayondir.	the result of this process is an abstract phonological representation consisting of stressed and unaccented syllables (i.e., the manifestation of the phonological properties of a word in the human brain). This is a process that takes place immediately before the speech.
<b>Fonologik shakl darajasi</b>	Fonologik kodlashtirish. Talaffuzni amalga oshirish uchun nutq a'zolarini harakatlantirish algoritmi (ketma-ketligi)	Phonological coding. An algorithm (sequence) for moving the members of the speech is planned to perform

	rejalashtiriladi.	the pronunciation.
<b>Grafema</b>	bo‘linishi mumkin bo‘lmagan minimal yozuv birligi.	a minimum unit of writing that cannot be divided.
<b>Kodlashtirish</b>	ma’lumotni ma’lum kod vositasida ifodalashdir.	is to represent information in a specific code.
<b>Kogerentlik</b>	tushunchasi matn tilshunosligi yo‘nalishiga tegishli bo‘lib, ko‘proq gaplarning o‘zaro bog‘liqligini anglatish uchun ishlatiladi. Kogerentlik tushunchasi matn tarkibidagi gaplar va mazmuniy bloklarning mantiqiy- semantik, grammatik va uslubiy mutanosibligini anglatadi. Unga <b>diskogerentlik</b> qarama-qarshi qo‘yiladi.	The term refers to the field of textual linguistics and is often used to denote the interdependence of sentences. The concept of coherence refers to the logical-semantic, grammatical, and methodological proportions of sentences and content blocks in a text. It is contrasted with discogeneration.
<b>Kontekst</b>	ma’lum lisoniy ifodani o‘rab turgan matn bo‘lib, bitta yaxlit mazmunni ifodalaydi.	is a text that surrounds a particular linguistic expression and represents a single whole.
<b>Konseptual tasavvur</b>	nutq yaratilishidagi dastlabki daraja bo‘lib, unda aytilajak gapning mazmuni haqida umumiyl tushunchaviy tasavvur shakllanadi.	is the first stage in the creation of speech, in which a general conceptual idea of the content of the utterance is formed.
<b>Kontekstual darajada</b>	so‘zlarning lokal kontekstdagi (bir-ikki gap doirasidagi) ma’nolari aniqlashtiriladi. Struktural	the meanings of words in the local context (within one or two sentences) are determined. At the structural

	<p>darajada gaplarning mazmuniy blok doirasidagi ma'nosi anglashiladi va mazmuniy bloklarning o'zaro aloqasi, boshqacha aytganda, matnning ichki mazmuniy strukturasi aniqlashtiriladi. Matnning mazmuniy persepsiya si jarayoni matn darajasi bilan yakunlanadi. Bunda retsipyent ongida yaxlit matnning proyektsiyasi hosil bo'ladi.</p>	<p>level, the meaning of a sentence within a contextual block is understood, and the interrelationship of the contextual blocks, in other words, the internal semantic structure of the text, is determined. The process of semantic perception of the text ends with the level of the text. This creates a projection of the whole text in the mind of the recipient.</p>
<b>Kontekstual ma'no</b>	ma'lum so'zning muayyan kontekstdagi ma'nosi.	the meaning of a particular word in a particular context.
<b>Lemma darajasi</b>	<p>nutq yaratilishida konseptual tasavvur darajasidan keyingi daraja bo'lib, so'z o'z leksik, sintaktik, pragmatik xususiyatlari bilan faollashadigan darajadir. Nima uchun lemma, leksema emas? Chunki nutq yaratilishida so'zning faqat ma'noviy xususiyati emas, gapda qaysi sintaktik vazifada kela olishi va pragmatik jihatni (ya'ni ayni nutq vaziyatida so'zlovchiga qanday ta'sir qilishi) ham hisobga olinadi.</p>	<p>is the level after the level of conceptual imagination in the creation of speech, the level at which the word is activated by its lexical, syntactic, pragmatic features. Why a lemma, not a lexeme? This is because speech formation takes into account not only the semantic nature of the word, but also its syntactic function and pragmatic nature (i.e., how it affects the speaker in the same speech situation).</p>
<b>Leksik daraja</b>	bu ikkala darajaning o'rtasida bo'lib, ma'lum belgilari va tovushlar	it is between the two levels and consists of a set of specific characters and

	majmuidan tashkil topadi.	sounds.
<b>Leksik-morfologik daraja</b>	qabul qilinayotgan nutqiy oqim ichidan so‘zlar leksema sifatidagi yaxlitligi va so‘z shakli sifatidagi morfologik xususiyatlarini saqlagan holda ajratiladi.	From the accepted speech flow, words are distinguished while maintaining their integrity as a lexeme and morphological features as a word form.
<b>Mazmuniy persepsiya</b>	nutqning sezgi a’zolari bilan qabul qilinishi va tushunilishi jarayoni. “Persepsiya” psixologik termin sifatida “obyektiv borliqning sezgi a’zolari bilan aks ettirilishi” deb ta’riflanadi . Rus tilshunosligida nutqning tushunilishini anglatish uchun “смысловое восприятие” termini, ingliz tilshunosligida “speech perception”, “language understanding”, “language comprehension” terminlari qo’llanadi. “Persepsiya” termini qabul qilishni anglatsa, “mazmuniy” sifatlovchisi nutqning shunchaki tovushlar oqimi sifatidagi passiv qabul qilinishini emas, sezgi a’zolariga ta’sir etayotgan nutqiy signal mazmunining tushunilishini ham anglatadi.	the process by which speech is perceived and understood by the senses. "Perception" is defined as a psychological term "the reflection of an objective being by the sense organs." In Russian linguistics the term "smyslovoe vospriyatiye" is used to describe speech comprehension, and in English linguistics the terms "speech perception", "language understanding" and "language comprehension" are used. The term "perception" refers to the perception of the meaning of speech, not only the passive perception of speech as a stream of sounds, but also the understanding of the content of the speech signal that affects the senses.
<b>Matn proyeksiyasi</b>	termini tomonidan retsipyent matnning	the term is understood as the final product of the process

	mazmuniy qabul qilinish jarayonining yakuniy mahsuli tushuniladi.	of semantic acceptance of the text by the recipient.
<b>Matnning perceptiv birliklari</b>	sifatida leksema, so‘z shakli, so‘z birikmasi, sintagmalar ajratildi.	lexemes, word forms, phrases, and syntagms.
<b>Matn bloklari</b>	matnning nisbatan mazmuniy yaxlitlikka ega tarkibiy qismlaridir. A.Metsler matn bloklarini “kommunikativ yo‘naltirilgan, nisbatan tugallangan birlik” sifatida ta’riflaydi va uning tarkibiy qismlari o‘rtasida “matn komponentlarining mazmuniy bog‘liqligini aks ettiruvchi motivatsion munosabat mavjud” ligini ta’kidlaydi.	are components of the text that have relative semantic integrity. Metzler describes text blocks as "communicatively oriented, relatively complete units" and argues that there is a "motivational relationship" between its components that reflects the semantic interdependence of the components of the text.
<b>Model</b>	ma’lum voqelikni o‘rganish, tadqiq qilish uchun shakllantirilgan, mazkur voqelikni abstraktlashtirgan holda ifodalovchi tizimdir.	is a system designed to study a particular reality, to represent it in an abstract way.
<b>Mental leksikon</b>	(mental – aqliy, ongga oid; leksikon- so‘z boyligi) so‘zning ma'nosi, talaffuzi, sintaktik xususiyatlari va hokazolarga oid ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan aqliy lug‘at sifatida belgilanadi. Mental leksikon - bu tilshunoslik va psixolingvistikada	(mental) is defined as a mental dictionary that contains information about a word's meaning, pronunciation, syntactic properties, and so on. Mental lexicon is used in linguistics and psycholinguistics to describe the reflection of words in the mind of an

	so‘zlarning individual so‘zlovchining ongidagi in’ikosini (aks etishini) ifodalash uchun ishlataladi.	individual speaker
<b>Morfo-fonologik kodlashtirish</b>	nutq yaratilishi jarayonida so‘zning morfologik va fonologik xususiyatlarining faollashuvi va faollandashgan xususiyatlar ichidan ayni nutq vaziyatida muhimlarining ajratib olinishi.	activation of morphological and phonological features of the word in the process of speech creation and separation of the most important from the activated features in the same speech situation.
<b>Nutq</b>	tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. N. deganda uning og‘zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar, ya’ni so‘zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi.	the functioning of language in the processes of expression and exchange of ideas, a specific form of life of language as a separate type of social activity. N. refers to the processes by which it is expressed orally and in writing, that is, the process of speaking and its outcome (spoken thoughts, works stored in memory or recorded in writing).
<b>Persepsiya</b>	qabul qilish.	to receive
<b>Segmentatsiya</b>	qabul qilinayotgan nutqiy oqimni qismga bo‘lish.	to divide the received speech flow.
<b>Semantik daraja</b>	Dell modelidagi daraja bo‘lib, predmetga oid turli belgilar guruhini o‘zida aks ettiradi.	A level in the Dell model that represents a different set of subject-specific characters.


<b>Spontan nutq</b>	oldindan tayyorlanmagan, ma'lum vaziyatda yuzaga chiqqan nutq.	unprepared speech that occurs in a particular situation.
<b>Spontan nutq korpusi</b>	ma'lum tilga oid spontan nutqning ovozli va matnli (transkripsiya) ko'rinishini qamrab olgan, lingvistik tahlil imkonini beradigan ma'lumotlar bazasidir.	is a database that allows linguistic analysis, including audio and text (transcription) versions of spontaneous speech in a particular language.
<b>Taassub</b>	retsipiyyentning ijtimoiy mansubligi va o'zlashtirgan bilimlari asosida yuzaga kelgan, ong harakatining cheklanishi bilan bog'liq bo'lgan, retsipiyyent o'zi qat'iy ishongan xulosalardir.	These are conclusions that are based on the recipient's social affiliation and acquired knowledge, are related to the limitation of the movement of consciousness, and are firmly believed by the recipient.
<b>Tovush</b>	(fizikada) — keng ma'noda — gazsimon, suyuq yoki qattiq muhitda to'lqin shaklida tarqaladigan elastik muhit zarralarining tebranma harakati. Tor ma'noda — odam va hayvonlarning maxsus sezgi organlari orqali qabul qilish, eshitish hodisasi. Gaz va suyuqliklardagi tovush to'lqini faqat bo'ylama to'lqin, qattiq jismlarda tarqaladigan to'lqinlar esa ham bo'ylama, ham ko'ndalang bo'lishi mumkin. Tovush tezligi quruq havoda $15^{\circ}$ trada $0,34 \text{ km/s}$ ,	(in physics) - in the broadest sense - the oscillating motion of particles of an elastic medium propagating in the form of waves in a gaseous, liquid or solid medium. In the narrow sense, it is the phenomenon of perception and hearing through the special sensory organs of humans and animals. Sound waves in gases and liquids can only be longitudinal waves, while waves propagating in solids can be both longitudinal and transverse. The speed of sound is $0.34 \text{ km / s}$ at $15^{\circ}$

	<p>suyukdikda 152 km/s, qattiq jismda 5Q6 km/s (olmosda 18 km/s) bo‘ladi.</p> <p>Insonlar qabul qilgan tovushlar ularning yuksakligi, tembri va qattiqligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Ana shu har bir subyektiv bahoga tovush to‘lqinining aniq fizik xarakteristikasi mos keladi.</p> <p>Har qanday real tovush oddiy garmonik tebranish emas, balki ma’lum chastotalar to‘plamiga ega bo‘lgan garmonik tebranishlarning yig‘indisidan iborat.</p>	<p>in dry weather, 152 km / s in liquid, and 5Q6 km / s in solid (18 km / s in diamonds).</p> <p>The sounds that people perceive vary depending on their height, timbre, and hardness. The exact physical characteristics of the sound wave correspond to each subjective value.</p>
<b>Xronometrik an’ana</b>	kuzatilgan psixolingvistik hodisalarni ularga ketgan vaqt birligi asosida tahlil qilish an’anasi.	the tradition of analyzing observed psycholinguistic phenomena on the basis of the unit of time spent on them.
<b>Talaffuz</b>	so‘zlarning talaffuz qilinishi. Bu bir qarashdagi tasavvurdan ko ‘ra murakkabroq jarayondir. Uning birligi bo‘g‘inlardir, chunki bo‘g‘in o‘pkadagi havoni taqsimlab chiqarishdagi eng kichik nutqiy vositadir. Shuningdek, har bir bo‘g‘in har doim bir xil talaffuz qilinmaydi, balki undan oldin va keyin qanday	pronunciation of words. This is a more complex process than one might imagine. Its unity is the joints, because the joints are the smallest means of speech in the lungs. Also, not every syllable is pronounced the same way, but it depends on what syllable comes before and after it.

	bo‘g‘in kelayotganiga bog‘liq bo‘ladi.	
<b>Topik</b>	matn bloklarining umumiy mazmuni bo‘lib, gap shaklida ifodalanadi. Bu terminni ayni ma’noda T.A. van Deyk ishlatadi.	is the general content of text blocks and is expressed in the form of sentences. The term is used in the same sense as T.A. van Dyke uses.
<b>Retsipiyyent</b>	termini nutqni qabul qiluvchi ma’nosini anglatadi. Biz bu terminni sinaluvchilar, tajriba ishtirokchilari so‘zлari bilan parallel ravishda ishlatdik.	The term refers to the receiver of speech. We used the term in parallel with the words test subjects.
<b>Stimul matn</b>	tajriba uchun berilgan matn bo‘lib, unda matnning psixologik ta’sir etuvchi sifatini ko‘rsatish uchun “stimul” so‘zi qo‘llandi.	was an experimental text in which the word "stimulus" was used to describe the psychologically influential quality of the text.
<b>Chastota</b>	fizikada — davriy tebranishning miqdoriy ifodasi; tebranish sikllari sonining u o‘tadigan vaqtga nisbati. Ch. v (texnikada f) tebranish davri T ga teskari kattalik. 2) ehtimollar nazariyasida — biror hodisaning ro‘y berishi sonining tajribalar umumiy soniga nisbati. Agar hodisaning tajribada alohida ro‘y berishi ehtimoliga teng bo‘lsa, yetarlicha kattalar uchun har qanday kichik bo‘lganda ushbu tengsizlikni qanoatlantiradi. Bu xulosa	1) in physics - a quantitative expression of periodic oscillations; the ratio of the number of oscillation cycles to the time it takes. Ch. v (in technique f) is the inverse of the oscillation period T. 2) in probability theory - the ratio of the number of occurrences of an event to the total number of experiments. If the probability of an event occurring separately in an experiment is equal to, then any inequality satisfies this inequality for an adult large enough. This conclusion

	<p>katta sonlar qonunidan kelib chiqadi. Ch. tushunchasi ehtimollikning statistik ta'rifi uchun assos bo'ladi; 3) kino texnikasida — kinoga olish yoki kino qo'yishda yoki televizor ekranida kadrlarning almashinish davriyligi yoki tezligi. Standart tezlik sifatida 1 sekundda 24 kadr almashinishi qabul qilingan (ba'zan 8 va 16 mm li kinolentalar ishlatalganda 1 sekundda 16 kadr almashinadigan tezlik qabul qilinadi). Televizor ekranida kadrlar almashinishi standart bo'yicha 25 Gs ga teng.</p>	<p>follows from the law of large numbers. Ch. the concept is the basis for the statistical definition of probability; 3) in cinematography - the periodicity or speed of the exchange of frames during filming or filming or on the television screen. The standard speed is 24 frames per second (sometimes 8 and 16 mm tapes are used at 16 frames per second). The standard frame rate on a TV screen is 25 Gs</p>
<b>Statistika</b>	<p>lot. ctatus — boylik, davlat) — 1) turli hodisalar va jarayonlarni miqdoriy hisoblash, ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish yo'li bilan ijtimoiy hayotning umumiyligi qonuniyatlarini o'rganadigan ijtimoiy fanlar tarmog'i. Tor ma'noda S. biron bir hodisa yoki jarayon to'g'risidagi jamlanma ma'lumotlar (ko'rsatkichlar) majmui (to'plami)ni bildiradi</p>	<p>(Latin ctatus - wealth, state) - 1) a branch of the social sciences that studies the general laws of social life through the quantitative calculation, processing and analysis of various events and processes. In the narrow sense, S. refers to a set of aggregate data (indicators) about an event or process.</p>

## VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI



## ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрель "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2909-сонли Қарори.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрь “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябр “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқенини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5850-сон Фармони.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгacha ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони

### III. Maxsus adabiyotlar

9. Alatis, James E. *Linguistics and the Education of Language Teachers: Ethnolinguistic, Psycholinguistic, and Sociolinguistic Aspects*. Georgetown University Round Table On Languages and Linguistics (Series); Georgetown

- University Press 1995.
10. Andrews, S. *Teacher language awareness*. Cambridge University Press. 2007.
  11. Friend, M., & Keplinger, M. (2003). An infant-based assessment of early lexicon acquisition. *Behavior Research Methods, Instruments, & Computers*, 35, 302–309. <http://doi.org/10.3758/BF03202556>
  12. Gagarina, N., Gülgow, I. (Ed.s) *The acquisition of verbs and their grammar: the effect of particular languages*. Springer. The Netherlands. 2008.
  13. Hoff, E. (2003). The specificity of environmental influence: Socioeconomic status affects early vocabulary development via maternal speech. *Child Development*, 74, 1368–1378. <http://doi.org/10.1111/1467-8624.00612>
  14. Marchman, V.A., and Dale, P., S. (2017) Assessing Receptive and Expressive Vocabulary in Child Language. *Research Methods in Psycholinguistics and the Neurobiology of Language*. John Wiley & Sons, Inc. 2018. Pp. 40-68.

#### IV. Elektron ta`lim resurslari

15. <http://lex.uz>
16. <http://lib.bimm.uz>
17. <http://ziyonet.uz>
18. <http://natlib.uz>
19. <https://www.futurelearn.com/subjects/language-courses/linguistics>

## VIII.TAQRIZLAR



**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ  
MARKAZI DOTSENTI I.AZIMOVA TOMONIDAN "TIL TA'LIMIGA  
PSIXOLINGVISTIK YONDASHUV" NOMLI FAN DASTURI VA  
O'QUV-USLUBIY MAJMUAGA**

**T A Q R I Z**

Mazkur fan dasturi "Til ta'limiga psixolingvistik yondashuv" fanidan magistrturaning 5A111201- O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan. Fan dasturi tilni o'zlashtirish jarayoniga psixolingvistik jihatdan baho beruvchi qator mavzularni o'z ichiga oladi.

"Til ta'limiga psixolingvistik yondashuv" fanini o'qitishdan maqsad tili ta'limining ilmiy-nazariy asoslarini, o'qitishning eng qulay va zamonaviy metodlarini ta'limning turli bosqichlarida qo'llay olishni, bo'lajak o'quvchilarga qo'yiladigan kasbiy talablar asosida ona tili fanini zamon talablari darajasida o'qitishning samarali metodlari, shakl va usullarini o'rgatish, ularni amaliyatga tatbiq qilishning pedagogik-metodik imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun mazkur fan dasturi talabalarni zaruriy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, jarayonlarga uslubiy yondashuv qobiliyatlarini hamda ilmiy dunyoqarashlarini rivojlantirish, ularda kasbiy-pedagogik hamda metodik ko'nikma va malakalarni shakllantirish, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, o'qituvchilik kasbiy madaniyatini kamol toptirishga o'rgatish vazifalarini bajaradi.

Dasturda o'qishni o'rganish psixologik jarayon sifatida, "Visual word from area" gipotezasi, matn mazmuniy persepsiysi darajalari, og'zaki nutq yaratilishining neyrobiologik asosi, o'quvchining og'zaki nutqini o'stirishga qaratilgan modellar, lug'at boyligini rivojlantirish, so'zlar o'rtasidagi assotsiativ bog'lanish, paradigmatic va sintagmatik assotsiyatsiyalar, til o'rganuvchilar individual xususiyatlarining til ta'limi jarayoniga ta'siri, o'qituvchining til malakasi(Teacher language awareness) tushunchasining ilmiy-pedagogik taomilga kirib kelishi kabi mavzular doirasida nazariy va amaliy mashg'ulotlarning olib borilishi nazarda tutilgan.

Ma'lumki, bugungi kunda ta'limning oliy ta'lim bosqichida til o'zlashtirish turkumidagi fanlar mohiyati hamda bu fanlarni o'qitishda o'ziga xosliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Fanni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'qitish mazmuni mavzular mazmuniga singdirilgan.

Ushbu fan dasturi "Til ta'limiga psixolingvistik yondashuv" faniga qo'yiladigan me'yoriy talablarga to'la javob beradi. Uni amaliyatga tavsiya qilish mumkin.

**Х.Дадабоев TDO'TAU professori, filologiya fanlari doktori**



**TOSHDO'TAU HUZURIDAGI PKQTMO TARMOQ MARKAZIDA  
O'QITILADIGAN  
“O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI”  
YO'NALISHI KURSI O'QUV DASTURIGA  
TAQRIZ**

“O'zbek tili va adabiyoti” yo'nalishi o'z maqsad va vazifalariga ega, albatta. Buning ijrosi uchun esa kredit modul tizimida dasturda ko'rsatilgan fanlarni dunyo ilm-faniga mos ravishda tashkil etish lozim bo'ladi. Fanlararo integratsiya, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'qitish va bilim olishda turli metod hamda metodologiyalarni qo'llash – bu davr talabi sanaladi. “Lingvodidaktika”, “Adabiyot o'qitishni yangilash metodikasi”, “Til ta'limiga psixolingvistik yondashuv”, “Semantikaning dolzarb muammolari”, “Jahon adabiy ta'limining ilmiy–nazariy asoslari”, “Ta'limda baholash nazariyasi va metodologiyasi” kabi fanlarning dasturga kiritilgani maqsadga muvofiq ekanini ta'kidlash zarur.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalarini asosida shakkantirilgan bo'lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamонави uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyatga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Dasturda har bir fanning qisqacha tavsifi, amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, malakaviy attestatsiya talablari, shuningidek, tinglovchilarni eng muhim adabiyotlar bilan tanishtirish uchun yangi ilmiy-nazariy adabiyotlar taqdim etilgan.

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajarishga yo'naltirilgani katta ahamiyatga ega.

Amaliy mashg'ulotlarda zamонави ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan hamda mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanishning tavsija etilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga har bir tavsiya qilingan fanlar kesimida nazariy, maxsus ilmiy adabiyotlarning tavsiya qilingani ham tinglovchilar ilmiy-metodologik saviyasiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbaalardan foydalanish yuzasidan ham zarur tavsiyalar berilgandigini alohida ta'kidlash mumkin.

Umuman olganda, mazkur dasurni ta'lim jarayoniga tatbiq etish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

**Filologiya fanlari doktori**

**S.Normamatov**





14.09.2020

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi kursi o'quv dasturiga

#### TAQRIZ

Qayta tayyorlash va malakanı oshirish kurslarining asosiy maqsadi ta'lim sifatini yanada oshirish, ta'lim jarayoniga yangi ta'lim texnologiyalarni, ayniqsa noan'anaviy ta'lim metodlarini joriy etish, jahonning yetakchi oliy ta'lim dargohlarida erishilgan yutuq va tajribalarni o'zlashtirishdan iborat.

Shu ma'noda "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi uchun tayyorlangan o'quv dasturi yuqorida sanab o'tilgan maqsad-vazifalarni to'liq qamrab olgan deyish mumkin.

"Kursning maqsad va vazifalari" qismida asosiy vazifa tarzida pedagoglarning ijodiy-innovatsion faoliyatini oshirish, maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning zamонавији usullari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish kabilarning belgilanishi diqqatga sazovordir.

O'quv dasturining 1-moduli "Pedagogning professional faoliyatidagi innovatsiyalar" deb nomlangan. Ushbu modulda kredit modul tizimi va o'quv jarayonlarini tashkil etish, tinglovchilarining ilmiy va innovatsion faoliyatini rivojlantirish, jumladan, pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini Scopus, Science Direek, Mendeley tizimlari asosida yanada takomillashtirish masalalariga diqqat qaratilgan. Darhaqiqat, bu talab va shartlar amalga oshirilganda, aniqrog'i pedagog-tinglovchilarda bunday malaka va ko'nikmalar shakllanganda uning dunyo pedagogikasi bilan integratsiyasi yanada oshadi, shuningdek, uning ta'limini olgan talabalarning ilmiy saviyasi risoladagidek bo'ladi.

2-modul "Pedagogning axborot va kommunikativ komponentligini rivojlantirish" deb nomlangan.

Vebinar, onlayn ma'ruza, "blended learning", "Slipped classroom" kabi zamонавији pedtexnologiya asoslarini o'zlashtirib, ta'lim jarayonlarini tashkil etishga qaratilgan ushbu modul ham maqsad-vazifalarning aniqligi va zarurligi nuqtai nazaridan ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, har yetuk pedagog o'z fani doirasidagi muhim ma'lumotlarni inglez tilida bilishi va fikrlarini og'zaki va yozma ravishda yetkaza olishi davr talabidir. Modulning 2-qismida ana shu masalaga ham alohida e'tibor berilgan.

3-modul "Mutaxassislik fanlari"ga ajratilgan bo'lib, bu modulda til va tafakkur munosabatlari, semantika, jahon adabiy ta'limidagi konstruktivizm, gumanizm kabi yangicha yondashuvlarga o'rinn ajratilgan. Adabiyotshunoslik va adabiyot o'qitishga doir yangiliklarning milliy ta'limga tatbiq etilishi, shuningdek, badiiy matnni tahlil etishning interfaol usullarini o'zlashtirish hamisha ijobi natija beradi. Mazkur modelda shu kabi masalalarning aks etganligini ijobi yutuq sifatida alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilarni inobatga olib mazkur dasturni ta'lim jarayoniga tatbiq etish mumkin.

Emek Ushenmez,

*Filologiya fanlari doktori, İstanbul universiteti professori*